

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI  
JAHON SIYOSATI KAFEDRASI**

**Azamjonov Rasuljon Hakimjon o‘g‘li**

**YEVROPADA ISLOM DININING SIYOSIYLASHUVI**

**5310100 – Siyosatshunoslik**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: s.f.d., prof. Yovqochev Sh.A.**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1–BOB. ISLOM DINI SIYOSIYLASHUVINING NAZARIY ASOSLARI</b> .....	9
1.1. Islom dini siyosiylashuvining tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablari.....	9
1.2. Islom dinining siyosiylashuviga doir zamonaviy yondashuvlar.....	18
<b>2–BOB. YEVROPA DAVLATLARIDA ISLOM DINI SIYOSIYLASHUVINING ASOSIY TENDENSIYALARI</b> .....	27
2.1. Yevropa davlatlarida islom dini tarqalishining jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta’siri.....	27
2.2. Yevropa jamiyatida islom va xristian dinlarining o’zgarishdinamikasi.....	35
2.3. Islom dinining Yevropa davlatlarida siyosiylashuvining istiqbollari.....	45
<b>XULOSA</b> .....	53
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b> .....	55
<b>ILOVA</b> .....	60

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Din - jamiyatning ajralmas qismidir. Jamiyat hayotida din asosiy boshqaruv asoslaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda dinlar ichida judayam keng yoyilib borayotgan din-Islom dinidir.

Istiqlol yillarida vijdon erkinligi borasida ham katta yutuqlarga erishdik. Yurtboshimiz mustaqillikka erishilgandan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay bunday degan edi: «Bugun ana shu din orqali vujudimizga musaffolik, dilimizga, inshoolloh, poklik kirib kelmoqda. Axloq-odob, ma‘rifat yana xonadonimiz fayziga, odamlar xislatiga aylanishida islomning o‘rni benihoya bo‘lmoqda. Biz kelgusida din oldidagi to‘siqlarni olib tashlaymiz.

Yaxshilik nur keltiradi, yomonlik zulmat deydilar. O‘zbekistonning kelajagi yaxshilik poydevoriga qurilmog‘i shart. Chunki faqat yaxshilik boqiy yashaydi. Odamlarning odamlarga yaxshiligi! Yurtdoshlarning yurtdoshlarga yaxshiligi! Millatdoshlarning millatdoshlarga yaxshiligi! Bu O‘zbekistonning shiorigina emas, da‘vatiga, chaqirig‘iga, xislatiga aylansin. Yaxshilik qilgan millatni hurmatlash, yaxshilik qilgan avlodni e‘zozlash tafakkur olamining quyoshiga aylansin. Mening orzum ham, istagim ham, tutar yo‘lim, asosiy qayg‘u-tashvishim, quvonchu sevinchimning boisi ham shu»<sup>1</sup>.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko‘payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an‘analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq. Va xalqimizning ma‘naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy

---

<sup>1</sup>«Xalq so‘zi» gazetasi, 1991 yil 17 dekabr

poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi, deb o'ylayman<sup>1</sup>

Aytish mumkinki, Yevropada islomning siyosiylashuvi o'ziga xos jihatlariga ega:

*Birinchidan*, Yevropa davlatlarining deyarli barchasida xristianlik dini davlat dini hisoblanadi ammo Yevropa jamiyatida islom dinining roli va mavqeyi kuchayib borayotgani, unga e'tiqod qiluvchilardi soni jihatdan ikkinchi o'ringa chiqib olganligi sabablari haqidato'xtalib o'tilgan;

*Ikkinchidan*, Yevropada Islom dinining kengayib borishi mintaqa davlatlarining iqtisodiy va siyosiy hayotiga ta'siri, diniy va etnik omilning davlatlar ichki siyosatidagi ta'sir va ahamiyatini oshib borayotganligi jamiyat hayotida din ta'sirining mavjudligi;

*Uchinchidan*, Islom dini nafaqat Yevropa qit'asida balki butun dunyoda juda tez kengayib xalqlarning mentalitetiga ta'sirini ortib borayotgani va ushbu holatlar davlatlar ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotida o'rniyuqoriligi.

Yevropa mintaqasida Islom dini rivojlanishiga G'arb davlatlarining Ikkinchi jahon urushidan so'ng "Sovuq urush" kuchli ta'sir ko'rsatgan. "Ikki qutbli dunyo" nihoyasiga yetgandan so'ng islom dini judayam shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shu jihatdan nafaqat Yevropa balki butun dunyoda islom dinining yoyilishi judayam ahamiyatli.

Bundan tashqari Yevropa jamiyatiga juda katta ta'sir o'tkazmoqda. Hozirgi Yevropa jamiyatining madaniy-axloqiy hayotiga, xususan eng asosiy muammosi bo'lmish oila masalasiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Islom dini bundan tashqari jamiyatni turush-turmushi ayrim kamchilik va yetishmovchiliklar, shaxsning ruhiy holatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda

Ta'kidlash joizki, Yevropa davlatlari bunga indamasdan qarab turgani yo'q. Ular islom dini tarqalishiga katta qarshilik ko'rsatishga harakat qilishmoqda.

Qudratli davlatlar, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya rahbarlari bu kurash aslo islom davlatlariga, islom diniga, Afg'oniston xalqi

<sup>1</sup>Qarang: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмаскуч. –Т.:Ўзбекистон, 2008. –Б.27.

yoki "Tolibon" harakatiga qarshi qaratilmaganini, uning asl maqsadi mudhish terrormashinasini butun dunyoda yo'q qilishdan iborat ekanini alohida ta'kidlamog'da. Ular bizning maqsadimiz millionlab begunoh insonlarning boshiga kulfat solayotgan terror balosini jamiyat hayotidan, dunyo xalqlari hayotidan o'chirib tashlashdan iborat, deb takror-takror aytmoqda.

Buning xavfli tomoni shundan iboratki, inson qiyofasini yo'qotgan, qo'li qon terrorchilar va ularning "dohiy"lari mo'min-musulmonlarning soddaligidan, diniy hissiyotlaridan foydalanib, o'z jinoyat korona qilmishlarini islom dini nomidan xaspo'shlashga intilmoqda. Bunday kuchlarning makkor targ'ibotchilari nafaqat Afg'oniston, balki boshqa ko'plab davlatlarda ham joylashib olib, bugungi kunda terrorism markazlariga berilayotgan zarbalarni barcha musulmonlarga qarshi, islom dinini butunlay yo'qqilishga qaratilgan urush, deb jar solmoqda<sup>1</sup>.

Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqida parastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.<sup>2</sup>

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning davlatimiz ma'naviyatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonda diniy erkinlik haqidagi qonunga tayanildi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Qarang: Karimov I.A. Ўзбекистон XXI asr b'usaфасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –326.б.; Karimov I.A. Xavfsizlikvatinchlikkuchunkurashmoqkerak. –T.10. –T.:O'zbekiston, 2005. –B.77.;

<sup>2</sup>Qarang: Karimov I.A. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.:Ўзбекистон, 2008. –Б.28.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Ўзбекистон XXI asr b'usaфасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997, –326 б.; Karimov I.A. Ўзбекистон демократик тараккиётнинг янги боскичида. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –144 б.; Karimov I.A. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча

Yevropa davlatlarida Islom dinining siyosiylashuvi ilmiy tahliliy asosda o'rganishda mamlakatimizdagi va Yevropa mamlakatlaridagidiniy konsepsiyalarga asoslandi.

Islom dinining rivojlanishi, tarqalishi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, dindagi turli oqim va mazhablari shakllanish bosqichlari Sh.A.Yovqochev, N.Ibragimov. M.M.Muhamadsidiqov, A.Abdulg'afforxon, A.Qodirov, A.A.Abdisattotov<sup>1</sup>, A.V.Narbekov, Jo'rayev U., Saidjonov Y, Muhammad Iqbol kabi mahalliy olimlarning ilmiy risola va maqolalarida ochib berilgan.

Jumladan olim Sh.A.Yovqochev<sup>2</sup> Misrda din va davlat munosabatlari, davlat boshqaruvning shakllanishida diniy omilning ta'siri va bugungi kundagi mamlakatdagi siyosiy voqe'liklar tadqiq etgan.

Mening o'ylashimcha, madaniyat yengilliklari, yangi fan-texnika kashfiyotlari va asbob-uskunalar bilan islom madaniyatiga xos go'zallik, oddiylik, jiddiylik, poklik va ozodalikka e'tibor berish, isrofchilik va tashqi ko'rinishga qattiq berilishdan chetlanish orasini jamlash juda ham oson. Basharti, hukumatlar va islomiy jamiyatlar ko'r-ko'rona taqlidchilik, o'ylamasdan ish tutish va umidsizliklarni yengib chiqib, mustaqil madaniyatli reja tuzishning uddasidan chiqsa olsalar. SHuningdek Islomiy hukumat va jamiyatlarda zakovat, irodalik hamda Islom madaniyatining kelib chiqishi, barpo bo'lishi va Islom madaniyati deb atalishi Islom ta'limotining sharofatidir, deb imon keltirish yetarli darajada bo'lishi kerak.<sup>3</sup>

---

ishlarimizning mezonlari va maqsadidir. –T.15. –T.:Ўзбекистон, 2005. –320 б.; Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11 –Т.:Ўзбекистон, 2003. –320 б.; Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислам Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабрь; Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. –80.б.; Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлиси даги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь;

<sup>1</sup>Qarag: Абдисатторов А.А. Форс кўрфази араб давлатлари ташки сиёсатида “ислом омили”нинг сиёсий таҳлили. с.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. –Т.: ТошДШИ, 2005. –26 б.;

<sup>2</sup>См.: Ёвқочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. –Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. –252 с.;

<sup>3</sup>Qarag: Муҳаммад Иқбол "Ал-ақида, ал-ибодаъ, ас-сулук" –Т., 2005 "Аҳаммиятул ҳазоротул Исламийя вал хожату илайҳа" фаслига қаранг. –299 б.

Tadqiqotchilar M.M.Muhamadsidiqov, Taxa Fargali Abdel Xakim tomonidan islom dinining jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganishgan.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishni yoritishda internet manbalaridan keng foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Bitiruv malakaviy ishining manbalarida, avvalo, metodogik asos hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mavzu yuzasidan bildirgan asarlari, ma'ruza va nutqlari, shuningdek mahalliy hamda Yevropa mintaqasida faoliyat yuritayotgan olimlar va xorijlik mutaxassis-olimlarining asarlari, chop ettirgan risola va ilmiy maqolalari tashqil etadi. Internet manbalarini shular jumlasidandir.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishida Yevropada islom dinining siyosiylashuvining tarixiy va hozirgi holatini ilmiy tahlil qilish va istiqbolini aniqlash maqsad qilib olindi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Yuqorida ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- Islom dini siyosiylashuvining tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablariahamyatini ilmiy taxlil qilish;
- Islom dinining siyosiylashuviga doir zamonaviy yondashuvlar va bosqichlarini tadqiq etish;
- Yevropa davlatlarida islom dini tarqalishining jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish;
- Yevropada islom va xristianlik dinlarini o'zgarish dinamikasini qiyoslash;
- Islom dinining Yevropa davlatlarida siyosiylashuvining istiqbollari ni bayon etish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** Hozirgi davrda islom dinining siyosiylashuvi va zamonaviy tendensiyalari bitiruv malakaviy ish ob'ekti sifatida belgilandi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Yevropada Islom dinining rivojlanish bosqichlari, uning sitosiylashuvi hususiyatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Yevropa islom dinining siyosiyashuvining tarixiy bosqichlari va zamonaviy holati, uning asosiy tendensiyalari ochib berilganligi ishning ilmiy yangiligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu malakaviy ishda Yevropadagi islom va xristianlik dinlarining o'zgarish tendensiyalari izchil, tizimli va qiyosiy tarzda tahlil etilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Mazkur bitiruv malakaviy ishda tahlil etilgan siyosiy jarayonlar va faktlar, xulosalar va boshqa bir qator masalalarga oid materiallar "Dinshunoslik", "Siyosatshunoslik", "Jahon siyosati" va boshqa gumanitar yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy-amaliy qo'llanma sifatida qo'llanilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi** kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.



## **1-BOB. ISLOM DINI SIYOSIYLASHUVINING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1 Islom dini siyosiylashuvining tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy sabablari**

Diniy e'tiqod insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ma'naviy-madaniy xayotning muxim bo'lagi sifatida barcha mamlakatlar va jamiyatlarning ma'naviy-madaniy va xatto, iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita yoki bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois insonning dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik xuquqini e'tirof etgan xolda siyosat, din va mafkuraning o'zaro aloqadorligini, hozirgi jamiyatda dinning o'rni va rolini, dinning siyosiylashuvi va siyosatning diniylashuvidagi asosiy tendentsiyalarni, siyosiy mafkura mohiyati va hozirgi zamonning asosiy mafkuraviy oqimlarini taxlili o'ta dolzarbdir.

Din o'z tabiatiga ko'ra o'ta murakkab ijtimoiy xodisa bo'lib, u g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga nisbatan ishonchning xosilasidir. „Din” atamasi arab tilidan tarjimada „ishonch”, „ishonmoq” degan ma'nolarni anglatadi.<sup>1</sup>

Sayyoramiz aholisi juda ko'p turli-tuman dinlarga e'tiqod qiladilar. Hozirgi payitda Afrikaning tropik o'rmonlarida, Amazonka xavzasida yashovchi ba'zi xalqlarda alloqachon tug'alib ketgan ibtidoiy din formalari xamon saqlanib qolgan. Shuningdek, ba'zi xalqar e'tiqod qiladigan mahalliy va milliy ahamiyatga ega bo'lgan dinlar ham mavjud.

Yer shari aholisining ko'pchilik qismi asosan quyidagi dinlarga e'tiqod qiladi: xristian, islom, budda. Odatda bu dinlar “dunyo dinlari” deb ataladi. Jahon dinlaridan eng keng tarqalgani xristian dini bo'lib, unga asosan Yevropa, Amerika va Avstraliyada yashovchi taxminan 1 mlrd kishi e'tiqod qiladi.<sup>2</sup> E'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra Islom dini ikkinchi o'rinda turadi. Asosan Afrika va Osiyoda joylashgan deyarli 30 ga yaqin mamlakatda Islom davlat dini deb e'lon

<sup>1</sup>Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B.211.

<sup>2</sup>O'sha joyda. – B.211.

qilingan. Markaziy va sharqiy Osiyoda tarqalgan budda dini davlat dini deb e'lon qilingan. U jahon dinlari orasida uchinchi o'rinda turadi

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi davomida siyosat va din o'rtasida murakkab, lekin barqaror aloqadorlik vujudga kelgan. Siyosat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uzoq yillik tarixi siyosatning diniylashuv yoki aksincha, dinning siyosiyashuv davrlari ko'p marta ro'y berganligidan dalolat beradi. Bunday jarayonlar muayyan ma'noda hozirgi zamonda, xususan Yevropa mintaqasidagi davlatlarda xam ko'zga tashlanmoqda.

Aslida, tarixga murojaat qilinsa, antik zamonlardayoq siyosatchilar Yevropada ommaga ta'sir ko'rsatishning eng faol vositasi sifatida xristianlik aqidalaridan foydalanib cherkovni siyosat quroliga aylantirganliklari ma'lum bo'ladi. Insoniyat sivilizatsiyasining keyingi bosqichi-o'rta asrlarda jahonning ikki yirik dini-islom va xristianlik siyosat va siyosatchilarga shu darajada kuchli ta'sir etdiki, natijada bu dinlar G'arbda va Sharqda barcha davlatlar ustidagi „davlat“ga aylandilar.<sup>1</sup> Biroq, Yevropadagi reformatsiya, monarxiya rejimlari siyosiy extiyojlarini qondirish borasida cherkov mavqeyining asta-sekin so'nib borishi mutlaq siyosiy xokimiyatning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa xristian cherkovining siyosatga nisbatan ta'sirining sinishiga olib keldi. Feodal tartiblarga qarshi inqiloblar va undan keyingi siyosiy jarayonlarda diniy aqidalar yakka xukmronligidan uzoqlashgan Yevropa tafakkuri bozor munosabatlari erkinligi, dunyoviy ta'lim va texnik taraqqiyot sari jadal yuzlandi. Jamiyat mutlaq xukmronlik boshqaruvini rad etib, antik demokratiyaning ayrim shakllaridan ijodiy ravishda foydalanishga kirishdi. Yangi davr Yevropasida xokimiyatning cherkovdan uzoqlashuvi individning insoniy qadr-qimmatini xaqidagi masalani kun tartibiga qo'ydi. Bu esa xukmdor suverenitetidan xalq suverenitetiga o'tishni tezlashtirib, turli dunyoviy mafkuralar, jumladan, liberalizm xamda liberal siyosiy tizimlarni yaratdi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B.211.

<sup>2</sup>Еремеев Д. Ислам: образ жизни и стиль мышления. –М., 1990. –С.45.

Dinning ham salbiy ta'siri bor. Turli xalqlar va millatlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yishi, diniy xurofotlar va diniy qarama-qarshilik natijasida hatto qonuniyatlar to'kishlar, urishlar kelib chiqishi mumkin. Masalan, Falastin va Isroil munosabatlarida, Afg'oniston va Chechenistondagi voqealarda ko'rish mumkin.

Protestant mazxabidagi xalqlar yashaydigan mamlakatlarda odatda nikoh yoshi hammdan kech va ajralish esa unchalik murakkab emas. Ba'zi bir katolik mazhabiga mansub mamlakatlarda erkaklarga 14 yoshda, ayollarga 12 yoshda nikohga kirish qonun bilan ruxsat etilgan. Katolik uchun nikohni buzish ham 20-30 yil oldingiga nisbatan hozir ancha oson. Ilgari amalda bu man etilgan edi. Musulmon mamlakatlarida nikohga kirish yoshi juda kichik. Bu mamlakatlarda din erta va majburiy nikohni ko'p bolalikni ko'p xotinlikni qo'llaydi va ko'p hollarda demografik siyosatga salbiy munosabatda bo'ladi. Hinduiizm ham erta va majburiy nikohni hamda ko'kat o'g'itlar bolalikni qo'llaydi. Lekin musulmonchilikdan farq qilib ajralishni va ikkinchi nikohni man etadi. Ilgari Hindistondagi 14 yoshgacha bo'lgan qizlar va o'spirinlarning yarmi oila qurgan bo'lardi.<sup>1</sup>

Diniy qarama-qarshiliklar ko'pincha irqiy va milliy ziddiyatlar bilan bog'lanib, uzoq davom etadigan "qaynoq nuqtalarni" vujudga keltiradi.

Jahon dinlaridan eng keng tarqalgani xristian dini bo'lib, unga asosan Yevropa, Amerika va Avstraliyada yashovchi taxminan 2 mlrd kishi e'tiqod qiladi. E'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra Islom dini ikkinchi o'rinda turadi. Asosan Afrika va Osiyoda joylashgan mamlakatlarda Islom davlat dini deb e'lon qilingan. Sharqiy Osiyoda tarqalgan budda dini davlat dini deb e'lon qilingan. U jahon dinlari orasida uchinchi o'rinda turadi.<sup>2</sup>

Jahon dinlari qatoriga kiruvchi eng yosh din islom bo'lib, milodning VII asrida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Bu dinning asoschisi-Muxammad payg'ambar tarixiy shaxs bo'lib, 570-632 yillarda yashab o'tgan. Xozirgi paytda islomga e'tiqod qiluvchi 1,2 milliard axoli dunyoning 120 mamlakatida istiqomat

<sup>1</sup>Qodirov A. Q., Narbekov A. V. Dinshunoslik: Ma'ruzalar matni. – T.,2003. –B.76.

<sup>2</sup>O'sha joyda. –B.43.

qiladi. Osiyo va Afrikaning 52 mamlakatida islom dini davlatning mafkuraviy asosi deb e'lon qilingan.<sup>1</sup>

Islomda uch yo'nalish-sunniylik, xorijiylik va shialik shakllangan bo'lib, 92 foizni tashkil etuvchi sunniylar to'rt mazxabga bo'lingandir. Jumladan, xanafiylar 47 foiz bo'lib, Indoneziyadan, janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan to Turkiyagacha; shofeiylar 27 foiz bo'lib, shimoli-sharqiy Afrikada; molikiylar 17 foiz bo'lib, shimoli-g'arbiy Afrikada; xanbaliylar 1,5 foiz bo'lib, Saudiya Arabistonida istiqomat qilishadi.<sup>2</sup>

Islomdinida shariat muhim o'rintutadi. Shariat axloqiy, xuquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy qonun-qoidalar majmui bo'lib, uning asosiy manbai Qur'ondir.

Sharqda esa IX-XII asrlarda o'z mavqeini yanada mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan islom dini siyosatni o'ziga tob'e etibgina qolmay, u bilan uyg'unlashib xam ketdiki, bu xol bu yerdagi siyosiy rejimlarni zaiflashtirish u yoqda tursin, aksincha, ularning sezilarli darajada mustahkamlanishiga, jamiyatning jiplashuviga, fan va madaniyatning gullab-yashnashiga yordam berdi va shu bilan birga Sharq Uyg'onishining tamal toshi qo'yilishiga imkon tug'dirdi. Islom vujudga kelgan davrda din siyosatdan, xuquqdan, falsafadan ajralmagan xolda edi.<sup>3</sup>

Tarixda, shu jumladan, g'arblik tarixchilarning guvohliklari bilan avvalgi musulmonlar yer yuzida tarqalib, xalqlarga Islom da'vatini yetkazganlar. Shu bilan bir vaqtda o'sha yerdagi o'zlari uchratgan ilm-fan, madaniyat va san'atni o'rganganlar. Ularning ilmga bo'lgan qiziqishi shu narsalar yozib qoldirilgan manbalardan o'rganishga undagan. Professor Sedilat o'zining "Arablar tarixi" kitobida shunday deydi: "Musulmonlar o'rta asarlarda ilm, fan va falsafada yagona edilar. Ular bu narsalarni qadamlari qayerga yetsa, shu yerga tarqatdilar. Bu narsalar ular orqali Ovrupoda ham tarqaldi. Ovruponing uyg'onishi va taraqqiyotining asosiy sababchilari ham musulmonlardir"<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B.22.

<sup>2</sup> Ёвкочев Ш.А. Ислам ва hozirgi zamон. –T.: Toshkent islom universiteti, 2010. –B.198

<sup>3</sup>Грюнебаум Г. Очерки истории арабо-мусульманской культуры. –М., 1988. –С.32.

<sup>4</sup>Там же. –С.32.

Valfrad Kantvel bunday yozadi: "Musulmonlar g'alabasi dinlari hisobiga bo'lgan ichki g'alaba edi. Chunki musulmonlar birgina urush maydonida g'alaba qozongan yoki hayot tarmoqlarini hammasida ta'sir qilibgina qolmadilar, balki umumiy suratda hayot yo'lini yangicha tuzishda va bu yo'nalish yoxud madaniyatga o'ziga xos ko'rinish berishda ham g'alaba qozongan edilar. Islomiy madaniyatning paydo bo'lishida arab, yunon, o'rta sharqdagi somiyalar madaniyati, erondagi sosoniylar va hindiyalar unsurlariga o'xshash bir qancha omillar katta hissa qo'shgan. Musulmonlarning o'tkirligi ana shu turli omillarni -ular o'zi xususiyatini yo'qotmasdan turib - tartiblash, yangi qolipga solish va hayotga mos yo'lga solishda namoyon bo'ldi. Bu omillarni rivojlantirgan, takomillashtirgan va unda boqiylik kuchini yaratgan Islomdir. Islom asli va tarkibiy tuzilishidan qat'iy nazar hayotning barcha tarmog'iga Islomiy ko'rinish berishga muvaffaq bo'ldi. Islomiy yo'l hayotga, jamiyatga birlik va kuch yaratdi. Bu birlashgan kuchning paydo bo'lishida Islom qonunining o'rnini katta edi. Islom qonuni ibodatdan tortib to mulkchilik va hukmgacha bo'lgan hayot bo'laklarining hammasini, o'ziga xos keskin harakati ila tartibga soldi. Chunki Islom qonuni Kortovadan Maltangacha cho'zilgan Islomiy jamiyatni bir-birga bog'lagan birlashgan kuch edi. Islom qonuni Islomiy jamiyatdagi shaxslar uchun birlik yaratdi. Islom qonuni dunyoviy ishlarni manfaatli ishlarga aylantirdi. Jamiyat taraqqiyoti uzoq cho'zilishi uchun Islom qonuni birlikni har zamon davom etadigan qildi. Islom tarixi ko'plab podshoh va sultonlarni ko'rdi. Qanchadan qancha hukumat tuzilib, qancha hukumatlar quladi. Biroq hukumatlarning turishi yoki qulashi yer yuzidagi ijtimoiy hayotning Ilohiy ta'limotlarga ko'ra yurishiga ta'sir qilmasdi." <sup>1</sup>

Musulmonlar o'zlari kirib borgan yurtlardagi ilmiy kitoblarni boshqalarga o'xshab yo'q qilib kuydirib yubormanglar, balki ularni to'plab, katta-katta ilmiy markazlar qurganlar. Shu kitoblar yozilgan tillarni biluvchi kishilarni yordamga chaqirib, ularni tarjima qildirganlar. Tarjimonlarga esa, qilgan ishlari uchun juda katta miqdorda mol-dunyo berganlar. So'ngra esa, o'sha kitoblarni o'qib o'rganishga va hayotga tatbiq qilishga bel bog'laganlar. Bu ulkan ishlarga ularga

---

<sup>1</sup> Welfred Cantwell Smith: Islan in Modern History. -New york, 1957. -P. 36-37

musulmon podshohlar, amirlar va davlatmandlar yaqindan yordam berganlar. Shunday qilib, grek va rimliklardan so'ng, ilm sultoni musulmonlar qo'liga o'tgan. Ularning oliy o'quv yurtlari barcha xalqlarning foyda va ilm oladigan markaziga aylangan. (1- ilova)

Niyu-York dorilfununining professori Driber o'zining "Ilm va din o'rtasidagi tortishuv" nomli kitobida shunday deydi: "Musulmonlarning ilm bilan shug'ullanishlari 638 yili Iskandariya shahrini qo'lga olishlaridan so'ng boshlangan. Ya'ni, Muhammad payg'ambarning vafotidan 6 yil o'tgandan so'ng. Shu vaqtdan boshlab ikki asr o'tmay greklarning barcha ilmiy kitoblarini chuqur o'rgandilar va to'g'ri baholadilar. 813 yili Ma'mun xalifa bo'lganidan so'ng, Bag'dod shahri yer yuzidagi ilm poytaxtiga aylandi. Bu xalifa Bag'dodga behisob kitoblar to'pladi, ulamolarni yig'di va ularga zo'r hurmat ko'rsatdi". Bu ma'lumotdan shunisi malumki islom dini jamiyat hayotida ilk o'rta asrlardan beri ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Soiolog professor Gustav Lugon o'zining "Arab sivilizatsiyasi" kitobida islom dini va arablarning dunyo tarixida olib borgan o'zgarishlari haqida o'z qarashlarini namayon etgan: "Sharq ko'pgina xalqlarga bo'ysungan-fors, rim va boshqalarga. Bu xalqlarning siyosiy ta'siri kuchli bo'lsa ham madaniy ta'siri bo'lmagan. Fors, Rim va boshqa xalqlarning Sharqda qila olmagan ishlarini arablar tezda va hech bir majbur qilmasdan amalga oshirdilar. Ular Misrda nimani amalga oshirgan bo'lsalar, bayroqlari ustida hilpirab turgan Afrika, Suriya, Fors kabi boshqa yurtlarda ham amalga oshirdilar.<sup>1</sup> Ular yo'l-yo'lakay kirib o'tgan Hindistonda ham ulkan ta'sirlarini qoldirdilar. Hatto, faqat savdo uchun qadamlari yetgan Xitoyda ham ulkan ta'sir ko'rsatdilar. Tarixda bunday zo'r ta'sirga ega bo'lgan arablardan boshqa hech bir xalq yo'q. Arablar bilan aloqada bo'lgan xalqlar ularning madaniyatini qabul qilganlar. Arablarning Sharqqa ko'rsatgan ta'siri faqat diyonat, til va san'at bilan chegaralanib qolmay, balki ularning ilmiy,

---

<sup>1</sup> См.: Ёвкочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. –Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. –С.25.

madaniy ta'sirlari ham ulkan bo'lgan. Arablar Hindiston va Xitoy bilan bo'lgan aloqalari davomida ko'pgina ilmiy-ma'rifat ta'sirini qoldirganlar<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, bu yanglig' benazir birlik qadriga yetgan ba'zi g'arblik qalamkash va mutafakkirlar, bu birlikni o'ta olqishlaganlar. Jumladan Himaltan Gab bunday deydi:

"Islom siyosiy, ijtimoiy va diniy birlik shaklida namoyon bo'lgan intizomli tasavvurdir. Bu tasavvur keng vaqt va keng joyni qamrab oladi. Uning turli xususiyatlari hamma joy va hamma vaqtlarda ijtimoiy va mahalliy siyosat bilan aralashishiga qarab ko'rinish berdi. Misol uchun: Shimoliy g'arbiy afrikadagi Ispaniya, g'arbiy Osiyodagi Islom markaziga bog'liq edi. Ispaniya madaniyati Islom markazi madaniyatining bir qismi edi. Shu bilan birga Ispaniya turli maydonlardagi o'ziga xos xususiyatlari orqali g'arbiy Osiyoga o'z ta'sirini o'tkazdi. Shuningdek, hindiston qit'asi, Indoneziya, Rusiya janubidan to Xitoy hududigacha cho'zilgan dasht mintaqalariga o'xshash avtonom mintaqalar ham o'z muhitiga xos xususiyatlarga ega edi. Biroq bu mintaqalarning barisi bir qarashdayoq Islomiy jamiyatligi ko'zga tashlanardi".<sup>2</sup>

Arablarning Sharqqa bo'lgan ta'siri ulug' bo'lganidek, G'arbga ham ta'sirlari ulug'dir. Ovrupo sivilizatsiyasi arablar oldida qarzdordir. Arablarning G'arbga bo'lgan ahamiyatini bilish uchun arablar o'z sivilizatsiyasini Ovrupoga kiritishdan avval, u yerda ahvol qanday ekanligini anglamasdan oldin baholash qiyin. Agar IX milodiy asrga qaytadigan bo'lsak, bu vaqtda arablarning Andalusiyadagi (Ispaniya) madaniyati o'z cho'qqisiga chiqqan edi. Shu vaqtda G'arbdagi madaniyat o'choqlari vahshiy feodal pomeschchiklarning qarorgohi bo'lib, ular o'zlarining savodsizligini his qilgunicha ko'p vaqt o'tdi. Faqat XI-XII asrlardagina ilmga rag'bat paydo bo'ldi. Ovrupoda jaholat kafanini ustidan olib tashlashni xohlovchi odamlar paydo bo'lganda, arablarga qarab yuzlandilar".

Davlat va jamiyat xayotida taraqqiyot talablariga to'la javob bera olmayotgan islomiy mafkuraga muqobil dunyoviy mafkuraga extiyoj asta-sekinlik bilan

<sup>1</sup> Там же. –С.47.

<sup>2</sup> Hamilton A. R. Gibb, Studies of Civilization of Islam. –London, 1960. –P.3.

shakllana boshlagan. Bunda birinchidan, musulmon ruxoniylarni inkor etib, ularni ijtimoiy xayotdan asta-sekin siqib chiqarish, ikkinchidan ularning moddiy-iqtisodiy zaminini yemirishni ko'zlagan vaqf mulklarini qisqartirishga qaratilgan tadbirlardan iborat usullardan foydalanildi<sup>1</sup>.

Islom dini siyosiylashuvi diniy tashkilotlarni ham o'rni mavjud. Bu tashkilotlar islom dinini rivojlanishida o'z xissasini qo'shib borishmoqda.

Islom konferensasi tashkiloti (IKT)-hukumatlararo xalqaro Islom tashkiloti hisoblanadi. Unga 1969 yili, Islom mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining Rabot (Marokash) shahrida bo'lgan birinchi uchrashuvida asos solingan.

Islom mamlakatlari tashqi ishlar vazirlarining 1972 yili Jidda (Saudiya Arabistoni) shahridagi uchinchi anjumanida ta'sis etilgan va Nizomi qabul qilingan.

Hozirgi paytda IKT 56 ta musulmon mamlakatni, shu jumladan, Falastin Ozodlik tashkilotini birlashtirgan. O'zbekiston Respublikasi ham 1996 yildan boshlab IKTga a'zo. Tashkilot 1975 yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida kuzatuvchi maqomiga ega.<sup>2</sup>

IKTning rahbariy organlari-har uch yilda bir marta chaqiriladigan davlat va hukumat boshliqlari konferansasi, har yili yoki zarur hollarda favqulodda chaqiriladigan tashqi ishlar vazirlari konferensasi hamda Bosh kotib rahbarligida faoliyat olib boradigan kotibiyatdir.

Islom konferensasi tashkilotning faoliyati musulmon mamlakatlariga iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda, ilmiy-texnikaviy ishlarda yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Tashkilot kotibiyati tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, fan va texnika, xalqaro munosabatlar, axborot, inson huquqlari va boshqa bo'limlar ishlab turibdi. Shuningdek, u Islom dinini targ'ib qilish, masjidlar qurish, maktab va shifoxonalarga yordam ko'rsatish kabi xayriya ishlari bilan ham shug'ullanadi.

Tashkilot hududi, iqtisodiy salohiyati, to'plagan boyliklari, xalqaro doiralardagi obro'yi, siyosiy tuzilmasi va boshqaruv tizimidan qat'i nazar, deyarli

<sup>1</sup>Vasilyev L. S. Istoriya religiy Vostoka. – M., 1997. –C.73

<sup>2</sup>Encyclopedia Britannica Book of the Year. –L., 2010. –P.234



barcha musulmon mamlakatlarini birlashtirgan. U asosiy yo'nalishni Islom birdamligini va o'zaro hamkorligini mustahkamlashga, ayni paytda har bir davlat BMT doirasida, jahon hamjamiyati bilan birgalikda o'zining milliy manfaatlariga javob beradigan mustaqil siyosat yuritishini ta'minlashga qaratmoqda.

IKT qoshida bir necha mustaqil tashkilotlar ishlab turibdi. 1974 yili tashkil etilgan Islom Taraqqiyot banki shular jumlasidandir. Qarorgohi Jidda shahrida bo'lgan bankning asosiy maqsadi musulmon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida yordam ko'rsatishdir. Islomda foiz, ribo harom bo'lganidan bank ham, mijozlar ham foizsiz ishtirok etishadi. Bankning yiliga beradigan o'n milyardlab dollarli qarzlari a'zo mamlakatlarda infratuzilmalar tuzish va kengaytirish, aralash korxonalarini va tashqi savdo bitimlarini sarmoyalash, ularga texnikaviy yordam ko'rsatish kabi maqsadlarga yo'naltiriladi. Bank O'zbekistonda ham turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy dasturlarni amalga oshirishga mablag' ajratmoqda. Saudiya Arabistoni, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi mamlakatlar bankning eng yirik iqtisodiy ta'minotchilari hisoblanishadi.

Islom olami uyushmasi (ligasi)-"Robitai Olami Islomiyya" jahondagi nufuzli, obro'li xalqaro Islom tashkilotlaridan biri. U dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlaridagi taniqli yirik Islom uyushmalari va din arboblarni birlashtirgan. Uyushmaga 1962 yil may oyida Saudiya Arabistonining Makka shahrida bo'lgan Islom dini arboblarning xalqaro konferensasida asos solingan. Qarorgohi Makka shahrida.<sup>1</sup>

Uyushmaning oliy organi- "Ta'sis kengashi" bo'lib, unga jahonning turli mamlakatlaridan oltmishdan ziyod mashhur diniy arbob kirgan. Ta'sis kengashi ishini ko'pincha Saudiya Arabistonidan saylanadigan Bosh kotib rahbarligidagi kotibiyat boshqarib, muvofiqlashtirib turadi.

Uyushma qarorlari odatda tavsiya xarakterida bo'ladi. Uning majlislari yiliga bir marta chaqiriladi. Uyushma nizomiga ko'ra, uning asosiy maqsadi "Islom

---

<sup>1</sup>Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B.61.

ta'limotini butun dunyoga tarqatish"dir.<sup>1</sup> Uyushmaning asosiy e'tibori Islomni targ'ib qilish, musulmonlar birdamligini mustahkamlash, masjid-madrasalar qurishga ko'maklashish, haj ziyoratini tashkil etishga qaratiladi.

Saudiya Arabistonining uch yirik shahri-Fayoz, Madina va Jiddada uyushmaning bo'limlari ishlab turibdi. Yana jahonning o'n uch joyida-Ammon (O'rdun), Jakarta (Indoneziya), Kuala Lumpur (Malayziya), Nuakshot (Mavritiya), Dakar (Senegal), Parij (Fransiya), Nuy-York (AQSH) va boshqa yerlarda uning vakolatxonalari mavjud. Bundan tashqari dunyodagi barcha musulmon mamlakatlarida uyushmaning maxsus vakillari bor.

Islom Olami uyushmasi BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi hamda YUNESKO huzurida maslahat berish huquqini olgan. U BMTning Bolalar jamg'armasi (fondi)ga badal o'tkazib turadi.<sup>2</sup>

Uyushmaning tashabbusi bilan chaqirilgan Jahon Islom tashkilotlarining Xalqaro konferensasi (Makka, 1974 yil) yer kurasidagi Islom tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish Oliy Kengashini ta'sis etdi. Islom ommaviy axborot vositalari jahon konferensasi esa (Jakarta, 1980) Islom OAVi Oliy Kengashini tashkil qildi. Islom Olami uyushmasi rahbarlari har ikki tashkilotda ham yetakchi mavqeni egallashgan.

Uyushma arab tilida "Axbor ul-olam al-Islam" (Islom olami axboroti) haftalik gazetini hamda arab va ingliz tillarida "Robita ul-olam al-Islom" jurnalini muntazam nashr etadi. Bundan tashqari uyushma keng miqyosda targ'ibot va xayriya ishlarini olib boradi.

Xulosa qilib aytgandanda islom dini vujudga kelishi va yoyilishi vaqt va jamiyat hayoti uchun kerakli davr edi. Chunki islom dini vujudga kelgan payt yer yuzidagi ko'p xalqlarda yangi ishonchli dinga extiyoj mavjud bo'lgan.

## **1.2. Islom dinining siyosiylashuviga doir zamonaviy yondashuvlar**

---

<sup>1</sup>O'sha joyda- B.41.

<sup>2</sup>Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari: O'quv qo'llanmasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2007. – B.61.

Jamiyat tafakkuri tarixida diniylik va dunyoviylik ikki qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi tamoyil sifatida anglanib kelindi, ular o'rtasidagi munosabatda ham shunday qarash hal qiluvchi rol o'ynadi. Diniylik haqiqiy, abadiy dunyo deb g'ayri-tabiiy dunyoni tan oladi, insonning tabiiy dunyodagi hayotini abadiy dunyoga o'tish vositasigina deb qaraydi. Dunyoviylik esa reallikdan kelib chiqib, asosiy e'tiborini moddiy olamga qaratadi, insonning moddiy dunyoga moslashishiga, uni o'rganish va o'zgartirish asosida hayot sharoitlarini yaxshilashga undaydi. Diniylik va dunyoviylik qarashlari mohiyatan o'zaro qarama-qarshi bo'lsalar-da, bir-biriga ta'sir qilib, ba'zan bir-birini to'ldirib, birlarining qarashlaridan ma'lum darajada ta'sirlanib kelishgan.<sup>1</sup>

Bugungi kunda "ikki qutbli mafkura" o'rtasidagi kurash barham topgan bo'lsada, ammo butun dunyoda mafkuraviy kurashlar to'xtagani yo'q.

Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga o'rinishlar turli yo'llar bilan sodir bo'lmoqda. Dunyo har xil darajadagi davlatlardan tashkil topgan. Shu sababli yuksak darajada rivojlangan davlatlar mustaqil taraqqiyot yo'lini tutgan yangi davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishish uchun avvalo zabt etmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intiladi"<sup>2</sup>. Jahon geosiyosati daxalqlarning ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilishlar davom etmoqda. Buning uchun hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridan hamda har xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zigaxos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarni ham ko'zlanmoqda.

Dinning o'ziga hos mafkura sifatida qaror topishi ham jamiyatning ijtimoiy differentsiatsiallasuvi natijasida voqe bo'ladi. Diniy g'oyalar u yoki bu darajada tizimga tushganda, ma'lum maqsad va manfaatlar asosida shakllangandagina diniy mafkura to'g'risida gapirish mumkin. Shundagina u ta'limot (doktrina) sifatida

<sup>1</sup>Гуревич А. Средневековой мир - культура безмолвствующего большинства. М., 1990 г. -С.47

<sup>2</sup>Qarag: Karimov I.A. Юсакмаънавият-енгилмаскуч. -Т.:Ўзбекистон, 2008. -Б.23.

boshqa mafkuraviy tizimlardan farqlanadi va ular bilan munosabatda bo'ladi. Ungacha bo'lgan g'oya, qarashlarni dunyoqarash tushunchasida ifodalash o'rinlidir.<sup>1</sup>

Din inson moddiy va ma'naviy hayotining barcha tomonlari muammolari bilan bog'liq holda o'ziga xos dunyoqarash sifatida shakllanadi. Jamiyatning differentsiatsilashuvi, davlatlarning paydo bo'lishi dinning mafkura sifatida mustahkamlashib borishiga imkon tug'diradi. Diniy mafkura ijtimoiy hayot talablariga, muammolariga u yoki bu kuchlar tomonidan berilgan javob, yechimdir. Uning shakllanishida o'z davrining dunyoviy, jumladan, fantastik, falsafiy tasavvurlari muhim rol o'ynagan, dunyoviy bilimlarning yetarli bo'lmaganligi oqibatida din dunyoning tuzilishini, tabiat, jamiyat, inson hayotidagi kechadigan hodisalarning mohiyati, sabablari, ularning inson manfaatlari yo'lida hal qilish usuli, yo'llari masalalari bilan shug'ullangan. Turli guruhlar (sinflar, millatlar, davlatlar) diniy qarashlarining rivojlanishida, uning g'oyalarini talqin qilishda dunyoviy manfaatlaridan kelib chiqqanlar.<sup>2</sup>

Globalizatsiya jarayoni butun insoniyatga ijobiy hodisalar olib kelishi bilan birga o'zining salbiy qirralarini ham namoyon qilayotgani ko'p ta'kidlanmoqda. Umuman olganda, bu jarayon kecha yoki bundan o'n yil avval boshlangani yo'q, balki insoniyatning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Kunimizda dunyoning turli chetlariga Islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlarning yoyilib ketishi ham bevosita ushbu jarayon samarasi hisoblanadi. Islom tezlik bilan butun olamga tarqaldi va globalizatsiya jarayoning yorqin namunasiga aylandi. Islomning globalizatsiya jarayoni yordamida din sifatida tarqalishi ko'proq bugungi kunimizga va yillar davomida islom dinini tushunib qabul qilgan shaxslar bilan bog'liq. Islom o'z zuho'rining dastlabki yillarida globalizatsiya jarayonini kutib o'tirmadi, balki hidoyat bayrog'i ostida amalga oshirilgan fath yurishlari bilan harakatlandi. Islomning globalizatsiyasi ko'proq bugunki kunimizga xos. O'rta asr sharoitida durli din, millat, irq vakillarining integratsiyalashuv jarayoni, ishchilar

---

<sup>1</sup> Ёвкочев Ш.А. Ислон ва хозирги замон. –Т.: Тошкент ислон университети, 2010. –Б.72

<sup>2</sup> Туревич А. Средневековой мир - культура безмолвствующего большинства. –М., 1990. –С.65

migratsiyasi va axborot almashinuvi bugungiga qaraganda juda past bo'lgan. Yuqoridagi tushunchalar, asosan, kapitalistik munosabatlarni rivojlanishi hamda ularning “chegara bilmas” harakati bilan bog'liq.<sup>1</sup>

Globaliztsiya jarayonlari o'sib borishi bilan fanga “dinlararo muloqot”, “dinlar to'qnashuvi”, “madaniyatlar kurashi”, “demokratiya eksporti” kabi tushunchalar kirib keldi. Bular ichida ayniqsa “dinlar to'qnashuvi” tushunchasi muhim bo'lib, quyida bu mavzuda keltirilgan g'arb olimlarining qarashlari hamda islom ta'limotinig bu borada insoniyatga taqdim etgan haqiqatlarini tahlil qilamiz.

Sivilizatsiyalar to'qnashuvi konsepsiyasi ijodkorlaridan biri bo'lmish mashhur amerikalik siyosatshunos Samuel Hantington o'zining “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi” (The clash of sivilizations) asarida mazkur muammoni sotsiologik tahlil qiladi. Uning fikricha insoniyat tarixida bugungacha kechgan urushlarni quyidagicha tasnif qilsa bo'ladi:<sup>2</sup>

- Vestfaliya sulhidan keyingi barcha urushlar va nizolar podshohlar manfa'ati bilan bog'liq edi. Ularning urushishdan maqsadi o'z yerini kengaytirish, xazinasini boyitish yohud mag'lub mamlakatni o'ziga tobe' qilishga qaratilgan edi.

- 1893-yilgi Fransuz inqilobidan keyin urushlar millatlar manfa'ati o'rtasida kechadigan bo'ldi. R.R Palmerning ifodasi bilan aytganda “qirollar o'rtasidagi urush tugadi va endi xalqlar o'rtasida urush boshlandi” voqe'asi sodir bo'ldi. Endigi urushlar millat, xalq manfa'ti darajasiga ko'tarildi.

- Yuqoridagi holat 19-asr davomida saqlanib qoldi. Bunga birinchi jahon urushi barham berdi. Keyinchalik, rus inqilobi “Mafkuralar o'rtasidagi kurash” tushunchasi bilan xalqlar o'rtasidagi kurash tushunchasini siqib chiqardi.

- 20-asrning boshlarida bu g'oyaviy kurashlarning asosiy tomonlari kommunizm, fashizm va kapitalizm edi. Ikkinchi jahon urushi o'rtadan fashizmni chiqarib yubordi va natijada kommunizm va kapitalizm frontlari qoldi. Butun 20-

<sup>1</sup> Шарипов Б. Х. Экстремистские и террористические организации Ближнего Востока и оп=т борб= с ними //Экстремизм, терроризм, гурухийва уюшган жиноятчиликка қарши кураш муаммолари: Илмий-амалий конференция материаллари. - Т., 1999. - С. 176-177.

<sup>2</sup>Хантингтон С.Ф., Столкновение цивилизаций, (The clash of sivilizations) –М. АСТ, 2003. –С.7-8.

asr davomida “ikki qutb” ostida ularning adovati saqlanib keldi va bu qaramaqarshilik faqatgina Sobiq ittifoqning qulashi bilangina barham topdi.

S.Hantingtonning fikricha endigi nizolar hazoralar va ularning asosini tashkil qiluvchi dinlar o’rtasida bo’lishi kutilmoqda. U o’zining bunday qarshalarini quyidagicha isbotlaydi: “Kelajakning eng ahamiyatli nizolari madaniyatar o’rtasidagi bo’linish chiziqlarida ro’y beradi.”<sup>1</sup>

Klassik nizolarda odatda “Kim tomondasan?” degan savol qo’yilardi va inson esa qaysi tomonda ekanligini tanlash va hatto uni o’zgartira ham olar edi. Hazoralar to’qnashuvida esa “Sen kimsan?” degan savol qo’yiladi. Bu yuqoridagi in’om etilgan narsa o’zgarmasligi haqida gap bormoqda. Biz buning javobi Bosniya, Kavkaz va Sudanda qanday “yangraganini” ko’rdik. Din etnik tegishlilikdan ko’ra insonlarni yanada ko’proq bo’lib yuboradi. Inson yarim-fransuz va yarim-arab yohud ikki mamlakat fuqorosi bo’lishi mumkin, lekin yarim-katolik yoki yarim-musulmon bo’lishning imkoni yo’q”<sup>2</sup>.

Birinchi va ikkinchi jahon urushi oralig’ida hamda urushdan keyingi davrlarda Islom dini musulmon olamida mustamlakachilikka qarshi kurashlarda asosiy o’rinni egallab kelgan bo’lsa, o’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab islomdan siyosiy maqsadlarda foydalanish hollari yuz berdi. Bu hol ilk bor 1950-1960 yillarda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlarni boshidan kechirgan Misr, Suriya va Iroq kabi davlatlarda ko’zga tashlandi. 1980 yillarning oxirlariga kelib esa radikal xarakterga ega bo’lgan islomiy tashkilot va partiyalardan xoli bo’lgan biror bir musulmon davlati qolmadi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Islom dunyosida kechayotgan barcha jarayonlar g’arb siyosatdonlarining diqqat markazida turganligi ham hech kimga sir emas. Islom va musulmon olamini tadqiq qilishda kuzatuvchi va tahlilchilar asosiy urg’u beradigan jihat geosiyosat hisoblanadi. Ayrim musulmon mamlakatlarida kuzatilayotgan qashshoqlik ulardagi tabiiy resurslar yoki ishchi kuchining yetishmayotganidan emas, balki ilmiy-texnologik infratuzilmalarining

<sup>1</sup>Хантингтон С.Ф., Столкновение цивилизаций, (The clash of sivilizations) –М. АСТ, 2003. –С.7-8.

<sup>2</sup>O’sha joyda –С.7-8.

kuchsizligidandir. Hozirda musulmon davlatlari siyosiy va iqtisodiy rivojlanish borasida g'arbdan orqada qolgan bo'lsa ham, ilgari madaniy-ma'rifiy jihatdan g'arbdan ancha yuksak bo'lgan. Yaqin o'tmishda u o'zining chuqur ildizli madaniyati, urf-odati va an'analari tufayli musulmon olami xalqlari dahriylikka asoslangan kommunistik tuzum tashviqotiga qarshi turishda g'arbliklarga nisbatan zabardastroq bo'lishgan. Bu borada Amerika Qo'shma Shtatlari sobiq prezidenti Richard Nikson: "Bu sinovlarga islom dini har tomonlama nasroniy dinidan ko'ra ko'proq qarshi turgan"<sup>1</sup>, degan edi.

Islom dinida bir xalq yoki shaxs boshqa xalq yoki shaxsdan nasl-nasabi yoki millati bilan emas, balki dinga bo'lgan qiziqishi, ilmiy saviyasi, ko'rsatgan xizmati, din va ilm yo'lida qilgan say'-harakati bilan ustun sanaladi. Muhammad Payg'ambar: "Bordiyu ilm surayyo yulduzida bo'lganida, uni forslardan bo'lgan kishilar ilib ketgan bo'lardi"<sup>2</sup>, dedilar.

Islom dini XX asr oxirlariga kelib, o'z nufuzi va mavqeiga ko'ra, yer kurrasida xristianlikdan so'ng ikkinchi o'rinni egalladi. Hozir islom diniga deyarli 1,5 mlrd. kishi e'tiqod qilmoqda. Agar islom dini paydo bo'lgan davrlarda asosan Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lsa, XX asrning oxirlariga kelib Osiyo, Afrika, Yevropa va Shimoliy Amerikaning qator mamlakatlariga yoyilgan. Buning obyektiv va subyektiv sabablari mavjud.

Obyektiv sababi shundaki, islom dini yahudiylik, xristianlik dinlarining ijobiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan, diniy e'tiqod va sig'inishlarni inson hayotining turli holat va vaziyatlariga moslashtira olgan hamda diniy e'tiqod qulayligini ta'minlaydi. Shu bois u Yevropa va Shimoliy Amerikaning muqaddam xristianlik yoki yahudiylik e'tiqodida bo'lgan yoxud diniy e'tiqodi umuman bo'lmagan fuqarolarining aksariyatini o'ziga jalb eta olgan. Ayni vaqtda ham islom diniga kirish Yevropa va Shimoliy Amerikada muayyan udumga aylanib bormoqda. Bu hol, tabiiyki, boshqa diniy konfessiyalar rahbariyatini tashvishlantirmoqda. Ular islom e'tiqodini qabul qiluvchilar nufuzining ortib borishi, jahon ijtimoiy-

<sup>1</sup>У.ТурсиновИсломнинг дунё илм-фан ва маданиятига таъсири <file:///F:/www.islom.uzB8.htm>

<sup>2</sup>O'sha joyda.

siyosiy jarayonlarida islom qadriyatlarining ustuvorligiga olib kelishi boshqa diniy konfessiyalarning mavqeini zaiflashtiradi deb xavotir olmoqdalar. Aslida bunday tashvishlar o'ransizdir. Haqiqiy islom kishilar o'rtasida mehr-oqibat, poklik, halollik, shafqat, rahmdillik, xayr-saxovat, adolat va insof kabi qadriyatlarni e'zozlaydi, insonni ezgulikka undaydi. Islom dini niqobi ostida ish ko'ruvchilar, g'araz maqsadli siyosiy kuchlar, turli ekstremistik elementlar bundan mustasnodir. Din niqobida ish ko'ruvchi manfur, terrorchi kuchlar islom e'tiqodining millionlab kishilar qalbiga kirib borishi jarayonini aslo to'xtata olmaydi, aksincha, iymonli, diyonatli dindorlar ularni uloqtirib tashlaydilar va islom olamining ifloslanishiga yo'l qo'ymaydilar. Islom dini XXI asrga kelib jahon ijtimoiy-siyosiy sahnasida yirik siyosiy-g'oyaviy omil mavqeiga ega bo'la boshladi. Agar sobiq Ittifoq tuzumi davrida jamiyatda sekulyarizm (lotinchada-dunyoviy degan ma'noni anglatadi) va dahriylik (ateizm) siyosati hukmron bo'lgan bo'lsa, Markaziy Osiyoning mustaqillikka erishgan yosh davlatlari siyosatida sekulyarizm birmuncha yumshatildi, diniy e'tiqodga erkinlik berildi. Natijada islom dini siyosiy hayotga aralashish imkoniga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda jahon aholisining har beshtasidan bittasi Islomga e'tiqod qiladi. Oxirgi 50 yillikda Yer yuzining musulmon aholisi soni 235% ga o'sdi va hozirgi kunda 1.6 milliardni tashkil etmoqda. Islom e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan hatto, AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniyada ham ikkinchi dinga aylandi. Rossiyada esa 16 million musulmon istiqomat qiladi. Boshqa manbalarda Rossiya musulmonlari soni bir qancha ko'pdir. BB ga ko'ra (1999) Rossiyada 26 million musulmon istiqomat qiladi.

Jahon mamlakatlarida musulmonlarning umumiy soni quyidagicha. Hozirgi kunda dunyo aholisining qariyb 5/1 qismi (1.2 milliarddan ko'proq) Islom diniga e'tiqod qiladi. Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning ko'pchiligi Osiyoda, asosan Yaqin Sharq mintaqasida istiqomat qiladi. (2-ilova)

“Islam and Muslims” maqolasida yozilishicha, Islom dunyodagi eng katta ikkinchi din bolib, unga 1.3 milliard odam e'tiqod qiladi. Amerika Qo'shma shtatlarida esa Islom eng tez rivojlanayotgan din bolib, hozirgi kunda u



mamlakatda 1200 dan ortiq masjid va islomiy markazlar mavjud. Shuningdek, Islom Yevropada ham SHimoliy afrikalik immigrantlar hisobiga rivojlanmoqda<sup>1</sup>.

<http://www.adherents.com><sup>2</sup> saytining ma'lumotlariga ko'ra Xristianlik 2.1 milliard, islom 1.3 milliard, dinsizlar: 1.1 milliard, hinduizm 900 million Xitoy milliy dinlari 394 million kishini tasghkil qilmoqda

<http://www.religioustolerance.org> saytining yozishicha hozirga kelib boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar pasaygani holda Islomga e'tiqod qiluvchilar soni osgan.

Xristianlik-2,039 million 32% (pasaygan)

Islom-1,226 million 19% (o'sgan)

Hinduizm-828 million 13% (stabil)

Dinsizlar-775 million 12% (pasaygan)

Xitoy milliy dinlari-390 million 6%<sup>3</sup>

Adherents.com saytining ma'lumotlariga ko'ra Xristianlik-2.1 milliard, Islom-1.3 milliard, Hinduizm-0.9 milliard, British Broadcasting Corp. ga ko'ra Xristianlik-2.0 milliard, Islom-1.2 milliard, Hinduizm-0.75 milliard tashkil qiladi.

Nafaqat Buyuk Britanyada, balki butun dunyoda mashhur bo'lgan Britanya ensiklopediyasining 1966 yilgi nashrida dunyo dinlari tarkibini shunday belgilagan: Xristianlik-1.9 milliard, Islom-1.1 milliard, Hinduizm-0.78 milliard. 2010 yilgi nashriga ko'ra Xristianlik-2.0 milliard, Islom-1.2 milliard, Hinduizm-0.8 milliard deb baxolngan.<sup>4</sup>

International Bulletin of Missionary Researchni ma'lumotiga ko'ra Xristianlik-2.0 milliard, Islom-1.2 milliard, Wikipedia Encyclopediada Xristianlik-2.1 milliard, Islom-1.3 milliard, Hinduizm-0.9 milliardni tashkil etadi.

Oxirgi o'n yilliklar davomida, musulmon davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot, islom va siyosat, islom va demokratiya, zamonaviy

<sup>1</sup> "Islam and Muslims" <http://www.apologeticsindex.org>

<sup>2</sup> McKinsey Consulting report, "The Coming Demographic: How Aging Populations Will Reduce Global Savings" (January 2005) McKinsey Company, <http://www.mckinsey.com/mgi/publications/demographicsl>

<sup>3</sup> <http://www.religioustolerance.org>

<sup>4</sup> Encyclopedia Britannica Book of the Year (2010) –P.234

davlatlarning siyosiy tizimida islomning o'рни va boshqa masalalar chuqur o'rganilishini talab etadigan hozirgi kunning dolzarb muammolari qatoriga chiqdi. Shuningdek, qadimdan bugungi kunga qadar Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy dini bo'lib kelgan islom mintaqa ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islom dini nafaqat bizning mintaqa, balki dunyodagi millionlab kishilar hayotining turli sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun islom tarixi, islomdagi mazhab va oqimlar tarixi, islomning musulmon mamlakatlari tarixidagi o'рни va roli, islom ilmlarining rivojlanish bosqichlari, islom huquqining huquqiy va siyosiy tizimlarning shakllanishiga ta'siri ilmiy va amaliy nuqtai nazardan o'rganilishi nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda.<sup>1</sup>

XX asrda dunyoning ikki tizimga bo'linishi tufayli yuqoridagi muammo vaqtinchalik ortga surildi. XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag'lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqib boshladi. Shulardan biri industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Mazkur muammo turli ko'rinishlarda, xususan din sohasida ham o'ta keskin tus oldi.

XX asrning oxirlarida diniy ekstremizm diniy-siyosiy harakat sifatida avj oldi. Shuning uchun ekstremistik ruhdagi diniy oqimlar o'ta janggarilik, murosasizlik g'oyalari bilan qurollangan, dunyoviy g'oyalar va dindagi modernistik yo'nalish tarafdorlarini ta'qib etuvchi, hatto terrorchilik vositasida jismonan yo'q qilishgacha boruvchi ashaddiy aqidaparastlar harakati sifatida baholanadi.

---

<sup>1</sup>McKinsey Consulting report, "The Coming Demographic: How Aging Populations Will Reduce Global Savings" (January 2005) McKinsey Company, <http://www.mckinsey.com/mgi/publications/demographicsl>

## **2-BOB. YEVIROPA DAVLATLARIDA ISLOM DINI SIYOSIYLASHUVINING ASOSIY TENDENTSIYALARI.**

### **2.1. Yevropa davlatlarida islom dini tarqalishining jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'siri.**

Hozirgi kunda islom dini taraqqiyot jihatdan dunyoda eng tez tarqalayotgan din hisoblanadi. Rasmiy hisobot va statistika bilan shug'ullanuvchi va Islom dini tarqalishi borasidagi ma'lumotlarni jamlovchi markazlarni aylanganimizda biz bir holatga duch kelamiz. Bu holat o'z-o'zidan bizni islom dini doimiy himoyada va unga hech qanday zarar yetmaydi, uning ansorlari kamaymaydi va unga ergashganlar yo'q bo'lib ketmaydi degan fikrga va hotirjamlikka yetaklaydi. BMTning hisobotlariga ko'ra dunyodagi musulmonlarning yillik ko'payish nisbati bir yilda 6.4 foizni tashkil etadi.<sup>1</sup> Shu vaqtning o'zida xristianlarning yillik ko'payish nisbati atigi 1 foizni tashkil etadi. Bu ba'zi tushkinlikka tushganlarning fikridan farqli o'laroq islom dinining keng ko'lamda tarqalib borayotganligiga katta dalildir.<sup>2</sup>

Hisobotlarga ko'ra islom dini jamiki e'tiqodlar orasida eng tez tarqalib borayotgan dindir.

1999 yilgi hisobotga ko'ra musulmonlar soni 1 milliard 200 miliona yetgan. Shuningdek islom dini hozirgi kunda jahonning barcha qit'alarida tarqalgan bo'lib 1997 yilgi hisobotlarga ko'ra musulmonlar adadi quyidagicha: Osiyoda 780 milion, Afrikada 308 milion, Yevropada 32 milion, Amerikada 7 milion, Avstraliyada 385 ming<sup>3</sup>

Bu hisobotlarni ko'zdan kechir ekanmiz Islomni tarqatishga xizmat qilayotgan xolisona da'vat harakatlari sababi ila Islom ahli ortib borayotganligi va bu dinga insonlar yakka tartibda va to'p-to'p bo'lib kirayotganligi ayon bo'ladi.

<sup>1</sup> Ёвкочев Ш.А. Ислом ва хозирги замон. –Т.: Тошкент ислом университети, 2010. –Б.198

<sup>2</sup>Хоји Исмаилоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти:Қисқача ма'lумотнома. – Т., 2005. –Б.87

<sup>3</sup>Тимоти Уинтер. XXI асрда ислом (Postmodern dunyoda qiblani topish).– Т., 2005. –Б.55

Islom dini Britaniya, Fransiya va Ispaniyada ikkinchi dinga aylandi. Islom markazlarining ma'lumotlariga ko'ra bir yilda 20 ming Amerikalik va 23 ming Yevropalik va 25 ming Britaniyalik Islom dinini qabul qiladi.<sup>1</sup>

Faqatgina Xitoyning o'zida 25 mingdan ortiq masjid bor. Shuningdek Yevropada ham 25 ming masjid bo'lib, musulmonlar doimiy ravishda masjidga ibodatga kelishadi. Nasroniylar esa aksincha so'nggi davrlarda cherkovlarga kam borishmoqda. Ushbu holat shu darajaga yetib bordiki, ba'zi Yevropa davlatlaridagi cherkovlardan biri ibodatga insonlarni chaqirish maqsadida musobaqa uyushtirib sovringa avtomobil qo'yishga majbur bo'ldi.

Bu holatga yorqin dalillardan biri bu Britaniyaning "Deli telegraf" gazetasi 2008 yil mart oyidagi sonida olib borilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra masjidlarga borayotgan Britaniyaliklar soni Angliya va Uelsda cherkovga borayotgan Britaniyaliklar sonidan ko'p ekanligini e'lon qilishidir. Shuningdek mazkur gazeta agar ahvol shu ko'rinishda davom etsa 2020 yilga borib yakshanba ibodatiga keluvchi xristianlar soni 678 mingga kamayishligidan ogohlantirgan va bu yil jum'a namoziga tashrif buyurgan musulmonlar soni 683 mingga yetganligini aytib o'tgan<sup>2</sup>.

Germaniyada ham musulmonlar soni ko'paymoqda. Germaniyaning "De filt" kunlik gazetasining ma'lumotiga ko'ra Germaniyada 120 dona qo'shimcha masjid qurilishi loyihalari mavjud. "Der shpigel" gazetasining Svist shahridagi Islomiy meros markazi bayoniga asosan keltirgan ma'lumotiga ko'ra 2004 yil iyul oyidan 2005 yilning iyun oyigacha 4 ming nafar Germaniyalik Islomga kirgan. Bu ko'rsatgich 2003 yilgi ko'rsatgichdan 4 marotaba ko'pdir. "Bild" gazetasining Islomiy arxivlar markazi instituti bahsiga tayanib keltirgan ma'lumotlariga ko'ra 2004 yilda Germaniyadagi minora va qubbalarga ega bo'lgan masjidlar soni 141 donadan 159 donaga ko'paygan va yana 128 dona qo'shimcha masjid qurib bitkazilmoqda. Boshqa tarafdin "Bank Drezden" keltirgan ma'lumotga ko'ra kelasi yillarda Germaniyadagi 350 dona cherkovlarning 96 donasi o'z faoliyatini

<sup>1</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.43

<sup>2</sup>O'sha joyda. –B.45.

to'xtatadi va cherkov binolaridan boshqa g'arazda foydalaniladi. Bunga holga cherkovga keluvchilar soni kamayishligi sabab bo'ladi.

Kelajakni o'rganuvchi tashkilotlar hisobotiga ko'ra o'n yildan so'ng Niderlandiya aholisining uchdan biri musulmonlarni tashkil etadi.

Fransiyada esa 2004 yilda 50 ming Fransiyalik musulmon bo'lgan shu sababli bu yil islom yili deb nomlangan. Hozirgi kunda diniy marosimlarni ado etish uchun cherkovga boryotgan Fransiyaliklar soni atigi 7 foizni tashkil etmoqda. Ustiga ustak yil sayin Yevropa davlatlarida tobora kohinlarning Islomga kirish holatlari ko'payib bormoqda.<sup>1</sup>

Fransiya ichki ishlari vazirligining bayonotiga ko'ra bir yilda Fransiyada 3600 nafar shaxs islomga kiradi. Bayonotda musulmon fransuzlar islomga ko'proq rioya qiluvchi bo'lib ularning orasida jinoyatlar sodir bo'lishi kam bo'lishi keltirilgan. Hozirgi kunda Fransiyada 2300 dan ortiq masjid bo'lib musulmonlar soni 7 milonga yetdi va shu sababli Islom ikkinchi dinga aylandi. Ba'zi ehtimollarga ko'ra 2025 yilda Fransiya aholisining to'rtidan bir qismi musulmonlarni tashkil etadi va 2050 yilga kelib musulmonlar Yevropa aholisining 20 foizini tashkil etadi. Lekin ba'zi hisobotlarga ko'ra 2040 yilga kelib Yevropada musulmonlar ko'pchilikni tashkil etishi mumkin. Fransiyadagi "Jon Afrik" jurnalining keltirgan xabariga ko'ra imom Navaviyning "Qirq hadis" kitobi va uning fransuz tilidagi tarjimasini keng tarqalmoqda. Fransiyaning musulmon va musulmon bo'lmagan aholisi tarafidan islom dinidagi muqaddas hadislarga qiziqishlari sababli ushbu kitob sotilishi jihatidan Fransiya kutubxonalarida yuqori natijalar ko'rsatgan.

Germaniya g'arbidagi Hesn viloyatidagi Yashil partiyasi hukumat tarafidan viloyat maktablarida yo'lga qo'yilayotgan islom dinini o'rgatuvchi darsliklar o'qitilishini qo'llamoqda. "Der SHpigel" gazetasining xabariga ko'ra ushbu qaror hukumat va viloyat boshqarmalarining 15ta vakili va islomiy tashkilotlarning 14ta vakili o'rtasida olib borilgan muzokaralardan so'ng qabul qilingan.

Hattoki Shvetsiyada ham islom dini hukumat maktablarida o'qitila boshlagan. Stokgolmdagi islom markazi tayyorlagan bayonga muvofiq Islom dini Shvetsiyada

<sup>1</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.45

ikkinchi dinga aylangan. Shu sababli hukumat ushbu dinni e'tirof etishga majbur bo'lgan va masihiylik dini bilan yonma-yon hukumat maktablarida o'qitilishiga ruxsat bergan. Shuningdek kelajakda Shvetsiyada Islom sohasiga xos universitetlar va institutlar ochilishi kutilmoqda.

2011 yilning 22 iyul kuni Norvegiyada mudhish hodisa yuz berdi: Breyvik degan kimsa mamlakatda islomga e'tiqod qiluvchilarning yashashiga norozilik bildirib, begunoh 77 kishini otib tashladi. Buni qarangki, uni nari borsa 21 yillik qamoq jazosi kutarkan.

Voqelik shuki, bugungi kunda islom dinining nufuzi Yevropa mamlakatlarida ham ortib bormoqda. Masalan, Norvegiyaning 1,8 foiz, Shvesiyaning 5 foiz, Buyuk Britaniyaning 4,6 foiz, Fransiyaning 8 foiz, Ispaniyaning 3 foiz, Finlyandiyaning 0,8 foiz, Gollandiyaning 6 foiz, Belgiyaning 6 foiz, Avstriyaning 5,7 foiz, Germaniyaning 5,2 foiz aholisini<sup>1</sup> islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil etadi. Demak, dinlararo bag'rikenglik g'oyasini butun dunyoda targ'ib etish insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Isroil matbuotining xabar berishicha, Yevropa qit'asi shu asrning oxirida Islom diyoriga aylanadi. Isroilda chiqadigan "Ediot axranot" gazetasi Xulio Miotining (Juliyo Mioti) "Islom dinining Yevropadagi istiqboli" deb nomlangan maqolasini o'z internet saytida nashr qildi. Unga ko'ra, Yevropashu asrning oxirida Islom diyoriga aylanadi. Muallif Yevropa aholisi tarkibida musulmonlarning ulushi ortib borayotganiga asoslanib, quyidagicha fikr bildiradi: "Hozirda musulmonlar Yevropa aholisining to'rtidan birini tashkil etadi. Agar bu holat shu tarzda davom etaversa, nasroniylar o'z dinlaridan sovishda va diniy mazhablariga nisbatan g'ayratsizlikda bardavom bo'lsa, tez orada nasroniy dini vakillari qolmaydi. Peshqadamlik esa musulmonlar qo'lga o'tadi". Janob Mioti o'z maqolasida Islom dini Yevropa hamjamiyatining ko'plab mamlakatlarida, xususan, Gollandiya, Belgiyada tarqalayotganiga ishora qildi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Encyclopedia Britannica Book of the Year. -L., 2010. -P.234

<sup>2</sup>Encyclopedia Britannica Book of the Year (2010) -P.234

Bunday yuqori o'sish sur'atining sababi shuki, musulmonlar Islom dinining arkonlariga g'ayrat bilan amal qilishda boshqa din vakillaridan ajralib turadilar. Muallif maqolada Islom markazlari va masjidning tobora ko'payib borayotganini va ayni paytda nasroniylar jamiyat va muassasalar miqyosida tanazzulga yuz tutayotganini ham eslatib o'tgan, deb xabar beradi.

Polsha aholisi ko'pchiligi katoliklar. Polshaning musulmonlar bilan birinchi to'qnashuvi tatarlarning XIII asrda qilgan hujumi paytida yuz bergan. Polyaklarning tatar musulmonlaridan nemis bosqinining bostirilishiga yordam so'rashlari natijasida ular o'rtasidagi xusumat sulhga aylandi. Tatarlarning ko'pchiligi o'z diniy marosimlarini ado qilishga hurriyatlarini saqlab qolishsharti bilan polyak armiyasiga qo'shiladilar. Shu orqali Polshada birinchi musulmon jamoasi vujudga kelgan. XV asrda Polsha hududlari 2 islom davlati bilan: qrim-tatar musulmonlari davlati (poytaxti Bog'chasaroy, ruslar uni hozirda Stavropol deb ataydilar) va Usmoniylar davlati bilan chegaralangan. Ular va Polsha o'rta-sida ko'plab urushlar bo'lib turgan. Shunga qaramay musulmon jamoalari Polsha knyazlari tomonidan hurmatda bo'lganlar. Hozirgi kunda Polsha sharqidagi Lyublin shahrida masjidlar va madrasalar qurilgan.

Hijriy 10-asr (milodiy 16-asr)da salib yurishlari natijasida musulmonlar tazyiq to'liqlariga yuz tutadilar va ularning ko'pchiligi Polshadan ko'chib ketadilar. Bu vaziyat Polsha va uning qo'shnisi bo'lgan mo'g'ul-tatar davlati o'rtasida aloqalarning keskinlashuviga olib keladi va milodiy 1640 yilda bu ikki davlat o'rtasida urush alanga oladi.<sup>1</sup>

Bunday urushlar Sulton Islom Jaroy III zamonida (1644-54 m.y.) takrorlanib turdi. O'zaro aloqalar Sulton Muhammad 4 Al-Tatariy davrida yaxshilandi. Polsha Litva bilan birlashgandan so'ng mo'g'ullarning ko'pchiligi Litva armiyasiga qo'shila boshlaydi va yurtdagi musulmonlar soni ortadi. Germaniya, Avstriya, Rossiya 18-asr oxirlarida Polshani bo'lib olganlarida, musulmonlar taqsim qilingan mintaqalarda tarqoq holda qolib ketadilar va ularning ko'pchilik qismi Rossiya imperiyasi ulushiga to'g'ri keladi. Birinchi jahon urushidan keyin Polsha yana

---

<sup>1</sup>Husniddinov Z. M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.,2000. –B.63

davlat sifatida namoyon bo'ldi. Musulmon aholi soni o'sha paytda 100,000 kishini tashkil qilar edi. Ularning ahvollari yaxshilanib, masjid va madrasalar qura boshlaydilar. Mamlakatning shimoli sharqidagi Vilnyus shahri muftiylik markazi va Polshadagi Islom jamiyatining qarorgohi edi. Musulmonlar Varshavada masjid qurishga qo'l uradilar. Lekin bunga boshlangan ikkinchi jahon urushi to'sqinlik qiladi. Ikkinchi jahon urushidan chiqishi bilan Polshaning siyosiy ahvoli o'zgaradi. Mamlakat maydoni torayib, aholi soni kamayadi.<sup>1</sup> Bu vaziyat Polsha musulmonlariga ham ta'sir qildi. Bu davrga kelib (1963 m.y.)ularning soni 11 ming kishi bo'lib, ulardan o'n minggi asli polshalik musulmonlar edi. 1971 yilda Polsha musulmonlari soni 15 mingga yetadi, so'ng bu miqdor ko'payib 20 ming kishini tashkil etgan.

Xalifalik va Vizantiya imperiyasi (Sharqiy Rim imperiyasi) davrida islomni kuch, zo'ravonlik bilan tarqatilgani mavzusi asosiy o'rinni egallaydi. An'anaviy maqolalar mualliflari yangi dinning tez yoyilishi sababini albatta mazkur da'vo bilan tushuntirmoqchi bo'ladilar. Bu mavzu sobiq Rim papasi Benedikt XVI ning 2006 yil Regensburgdagi ma'ruzasida ham aytib o'tildi. Bunday fikrlar hech qanday ilmiy-tarixiy asosga ega emas. Bunga ishonch hosil qilish uchun o'rta asr musulmon tarixchilari hujjatlariga qo'shimcha ravishda Rossiya va Yevropa olimlarining ilmiy tadqiqot ishlariga murojat qilish mumkin.<sup>2</sup>

Vizantiya bilan musulmonlar o'rtasidagi birinchi qurolli to'qnashuvga G'assonilarning amiri Shurahbil tomonidan Muhammad savning elchilarini (629 yil) o'ldirilishi sabab bo'ldi. "Xalifalik tarixi" deb ataluvchi ko'p jildlik asar muallifi O.G. Bolshakov shunday yozadi: "Muhammad payg'ambar Busraga elchi yubordilar, yo'lda Mu'tada uni Shurahbil qo'lga olib o'ldirdi. Bundan xabar topgan Muhammad payg'ambar 3000 kishilik qo'shin to'plab o'zlari yaxshi ko'rgan Zayd ibn Sobitni qo'mondon qilib yubordilar. Zayd Ma'anga yetib kelganda yo'lni ko'p sonli dushman qo'shini to'sib turgani ma'lum bo'ldi. Shurahbil Irakliydan yordam so'ragan edi, imperator 100000 Vizantiya askarlarini

<sup>1</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.45

<sup>2</sup> O'sha joyda –B.45



yubordi. Bu tengsiz jang Muhammad payg'ambarning ko'plab sahobalarining halok bo'lishi va musulmonlarning ortga chekinishlari bilan tugadi. Shunday qilib Vizantiya fuqarolarining qo'qqisidan hujumlari Xalifalik bilan Vizantiya o'rtasidagi urushning boshlanishiga sabab bo'ldi. Birinchi jang Mu'ta g'azoti bo'ldi”.

Vizantiya boshlagan urush uning butkul mag'lubiyati va Rum imperiyasi Janubiy O'rtayer dengizidan ajrashi bilan tugadi. Musulmonlarning muvaffaqiyatiga ko'pgina narsalar sabab bo'ldi. Mashhur avstriyalik islomshunos G.E. fon Gryunbaum bu borada shunday yozadi: “Bu ichki hududlarda jangchi guruhlarining harakatchanligi, tualardan foydalanish arablarga qo'shinni kerakli joyga tez yetib borishini ta'minlardi.”

Shu bilan birga musulmonlar muvaffaqiyatini harbiy taktik sabablarning o'zi bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bu paytgacha tarixda o'zlarini biror narsa bilan ko'rsata olmagan arablar ikkita butun jahon davlatlari-Eron va Vizantiya bilan tengsiz jang olib borar edi. Jangchi guruhlar qurollanishda va son jihatidan dushmanlaridan ortda bulganlariga qaramasdan ular har ikki urushda muvaffaqiyatga erishdilar. Shuning uchun fon Gryunbaum odillik bilan ta'kidlaydi: “Tan olish kerak musulmon qo'shinlarining yengilmasligi manbai sifatida dinni to'g'ri baholamaslik mumkin emas.”

Diniy va dunyoviy asosdagi bir qadar avtonomiya oqibatda dunyoviy xokimiyat va cherkov o'rtasida kurashni keltirib chiqardi. Yevropada butun o'rtaasrda davom etgan bu kurash Reformatsiyani vujudga keltirdi. Reformatsiya jarayonida (XVI asr) Yevropada ruxoniylar guruhisiz (iloxiyat xizmatchilari) yangi cherkovlar vujudga keldi.<sup>1</sup> Dindorlar o'z oralaridan va'zchilarini belgilaydilar, xashamatli an'analardan voz kechadilar va o'z ibodatlarida to'g'ridan-to'g'ri xudoga murojaat kiladilar. Isloxiy cherkovlar dunyoviy alomatlarga ega bo'lib siyosiy xokimiyat izmida buladilar.<sup>2</sup> Reformatsiya Yevropaxalqlarining milliy madaniyatlar rivojiga, milliy tillarni qaror topishiga sharoit yaratdi, jumladan,

<sup>1</sup>Гуревич А. Средневековый мир - культура безмолвствующего большинства. М., 1990 г. –С.34

<sup>2</sup>Бахтин М. Творчество Ф. Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. М., 1990 г. –С.15

Martin Metor Injilni lotinchadan nemischaga tarjima kildi. Islom siyosiy madaniyati “maslaxatli demokratiya”shaklini yaratdi, Xalifalik tamoyili Qur’ondagi uchta koidaga binoan yaratildi. Ulardan birinchisi xukmdorni o’z fuqorolari bilan “maslaxatlashishini” va umumning fikrini inobatga olib qarorqabul qilishni talab qiladi, boshqasi boshqarishni va munozaralarni adolat bilan xal qilishga chaqiradi, uchinchi qoida esa “Alloxning elchisiga” dindorning bo’ysunishini talab kiladi. Xalifa monarx xam, despot xam emas, uning boshqa musulmonlardan farqi, faqate’tiqodni avaylash va shariat me’yorlarini bajarish uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olgan shaxs.<sup>1</sup>

Xalifa xokimiyatni meros tarzda olishi va qoldirishi mumkin emas. Xaliflikka da’vogar va jamoat o’rtasida kelishuv-mubayi asosida xalifa xokimiyatni olishi mumkin. U barcha musulmonlar jamoasidan yoki ularning taniqli vakillari bo’lgan-mujaxitlar tomonidan saylanadi. xar bir musulmon singari xalifa xam musulmon huquqi me’yorlariga to’la bo’ysunushi va har qanday nojo’ya xattixarakati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Islom tadqiqotchilari ta’kidlashicha, xalifa xaqidagi shartnoma-mubayi ko’p asrlar davomida “jamiyat shartnomasi” (J.J. Russo) g’oyasini ifoda etib keldi.<sup>2</sup>

Xalifalikning tezlik bilan g’alaba qozonishining yana bir sababi-musulmon qo’shinlarini Vizantiya hukumatiga qarshi o’laroq mahalliy nasroniy aholining qo’llashidir. Bu haqda fon Gryunbaum yozadi: “Vizantiyada arablarga Yunon aholisining... sohil bo’yi shaharlarining Yunon madaniyati bilan ichki qishloq tumanlarida sharqqa moyil, boshqalarga qaramlikka ko’nikib qolgan erksiz aholining eski hokim sinfga befarqligi buni yanada chuqurlashtirdi.” Bu asarning ruscha tarjimasini sharhlashda mashhur rus sharqshunosi V.V.Naumkin qo’shimcha qiladi:Gap befarqlikda emas, balki Vizantiya aholisining feodallar zulmidan noroziligidadir. Unga nisbatan musulmonlar hokimligi ancha yengil edi.”

<sup>1</sup>Бахтин М. Творчество Ф. Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. М., 1990 г –С.64

<sup>2</sup>Туревич А. Средневековый мир - культура безмолвствующего большинства. М., 1990 г. –С.27

## 2.2. Yevropa jamiyatida islom va xristian dinlarining o'zgarish dinamikasi.

G'arb va Sharq mamlakatlarining diniy madaniyatlarida sezilarli farqlar ham mavjud. O'rta asr Yevropasida cherkovning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Cherkov xudo va inson o'rtasidagi vositachi bulib, faqat u insonning ruxini iloxiy "mu'jiza" yordamida xalos kilishi mumkin (cho'qintirish, tavba, nikoh udumlarida). Cherkov, o'zining yozma an'alariga ega bo'lmagan Yevropadagi qabilalar uchun bilimlarni to'plovchi va saqlovchi joy bulib, ta'lim tizimining shakllanishida, jamiyatning ijtimoiy tuzilishida, huquqiy va axloqiy mezonlari shakllanishida muxim rol o'ynadi. Islomiy an'alarining asosiy uziga xosligi shundaki, uning negizi diniy va dunyoviy, iloxiy va oddiy tafovutga ajratmasdan, mutloq "sof diniy" mazmunda ekanligidir.<sup>1</sup> Islomda xech kachon xristianlikdagi diniy aqidalarni qonunlashtiruvchi Vselensk sobori kabi institutlar bo'lmagan. Islomdagi teokratik ideal davlat bilan bir qatorda turuvchi aloxida diniy institutning (cherkovni) mavjud g'oyalari bilan muvofik kelmagan. E'tiqod aqidalarini ishlab chiqish va sharxlash davlat yoki diniy muassasaning, xalifalarning sud qilish ishlariga kirmagan. Jamoatchilik fikrining shakllanishi xususiy shaxslar, diniy arboblari (ulamolar) zimmasida bulib, ularning obro'yi diniy bilimlarga asoslangan. Din masalalari buyicha o'z fikrini bildirish huquqiga xar bir musulmon ega bo'lgan, faqat u Qur'on va xadisga zid bo'lmasligi lozim edi<sup>2</sup>.

Islom dini ilm-fan va ma'naviyat maydonida sof aqiydadan tortib to odob-axloq, yurish-turishgacha, ijtimoiy va shaxsiy maydondan tortib to siyosat, qonun va xalqaro aloqalargacha, xalq kasbu-hunaridan tortib to me'morchilik, adabiyot, she'riyat va benazir did-farosat maydonlarida o'zligini namoyon etdi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup>Грюнебаум Г. Очерки истории арабо-мусульманской культуры. М., 1988 г. –С.32

<sup>2</sup>Гуревич А. Средневековый мир - культура безмолвствующего большинства. М., 1990 г. –С.35

<sup>3</sup>О'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi. – 2006. – 26 avg.

Xristianlik asosan Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika qit'asining janubiy qismida va Osiyo qit'asining sharqiy qismida tarqalgan.

Xristianlik eramizning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin erlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos) Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret tug'ilgan. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Iso nomiga qo'shiluvchi Masih so'zi qadimiy yahudiy tili - *ivrit*dagi «*moshiax*» so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Grekchada bu so'z «xristos» («christos») shakliga ega. Bu dinning «*xristianlik*» yoki «*masihiylik*» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlik Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i - «Nazaret» bilan bog'lab, *nazroniyya* deb ham atalgan. Keyinchalik bu nom *nasroniyya*, *nasroniylik* shaklini olgan.<sup>1</sup>

**Xristianlikning ta'limoti.** Manbalar xabar berishicha, xristianlik yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Bu esa xristianlikning yahudiylikdan ko'p jihatdan ta'sirlanishiga sabab bo'ldi. Xristianlikning asosiy g'oyasi - Isoning odamzodning xaloskori «messiya» ekanligi yahudiylikda mavjud bo'lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqandir.

**Xristianlikdagi oqimlar.** Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida etakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istanbul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Кривелев И. Библия: историко-критический анализ. Т. 1 - М., 1999. –С.21

<sup>2</sup>O'sha joyda –С.7

XVI asr boshlarida katolisizmdan bir necha Evropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga keldi. Buning doirasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, bular ham o'z navbatida bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

**Pravoslav oqimi.** Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shahobchasi sifatida ro'yobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim asosan SHarqiy Evropa, Yaqin SHarq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar IV-VIII asrlardagi etti butxona Soborlarining qarorlari, shuningdek Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damasskiy, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.<sup>1</sup>

**Protestantizm oqimi.** Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U birinchi bo'lib katolik cherkovi bilan aloqani uzdi va protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra, insonning Xudo bilan bevosita muloqoti mumkin. Lyuterning diniy va dunyoviy hokimiyatga qarshi chiqishlari, katolik dindorlarning imonni va vijdonni inson bilan Xudo o'rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalarga qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.<sup>2</sup>

Xristianlik shaxsning bir qadar maishiy mustaqilligini ta'minladi. Diniy va dunyoviy ibtidoning bir qadarmustaqilligi xususida Injilda shunday deyilgan: "Qaysarga xokimiyat, taqvodorga esa Xudoni bering". Islomda kishi faqat va so'zsiz Xudoga tegishlidir. Musulmon kishi islom buyurganicha fikr yuritadi, shunga muvofik "din" va "mentalitet" tushunchalarini ajratish mumkin emas. Agar xristian uchun injilga madaniyat yodgorligi sifatida munosabat bildirishi mumkin,

<sup>1</sup>Кривелев И. Библия: историко-критический анализ. Т. 1 - М., 1999. –С.7

<sup>2</sup>O'sha joyda –С.8

musulmon uchun Qur'on biron-bir madaniyatga qiyos kilib bo'lmaydigan, iloxning beqiyos timsoli, balki sifatidir. Xristianlikda "qism" va "butun"ning maqsadi o'zaro munosabatda bir-birini taqozo qiladi (dindor va cherkovning, individ va umumning), o'z iroda kuchidan xoli bo'lganidek, cherkovdan tashkarida shaxsiy najot mumkin emas. Islomda aloxida individning taqvodorligini uning qanchalik shaxsiy zoxidligi emas, umma (musulmonlar qavmi) ishlarida shunchalik qat'iy yo'l-yo'rik asosida ishtiroki belgilaydi, busiz najot topishi mumkin emas, ya'ni islomda ayrim butunga kushilgan kabi seziladi.<sup>1</sup>

MDH hududida ham xristian dinining pravoslav mazhabi keng tarqalgan. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, chuvashlar, moldavanlar, gruzinlar, osetinlar kabilar xristian diniga e'tiqod qiladi. Katolik mazhabiga g'arbiy ukrainlar, beloruslarning bir qismi, litvalikar, latishlar e'tiqod qiladi.

MDH hududida ikkinchi katta din-Islom dinidir. Bu dinga O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari, shuningdek, sharqiy kavkaz xalqlari, tatarlar, bashqirdlar, janubiy Sibirning turkiy tillarida gaplashuvchi xalqlari e'tiqod qilishadi.

Yevropaliklarning Islom to'g'risidagi O'rta asrlarga oid tasavvurlarida turli xil bo'lmagan uydirmalar to'lib yotibdi. Islomning qanday tez tarqashini tushuntira olmagan ko'pchilik siyosiy va diniy rahbarlar o'z xalqlariga uni yolg'onchilik dini, maishiy buzqlik, zo'ravonlik dini, faqat qurol kuchi bilan tarqatiladigan din deb tushuntirishdi. Tabiiyki, nasroniylik dini Islomga qarshi g'oyaviy maqsadlarda, ruhiy-ma'naviy poklik, faqat tushunchalar kuchi bilan tarqaladigan din sifatida qo'yildi.<sup>2</sup>

Uyg'onish davrida islom fani ta'siri sharofati bilan Yevropa fanining shiddatli yuksalishi va g'oyaviy qarashlarning o'zgarishi musulmon madaniyatini, diniy ta'limotini haqiqiy o'rganish imkoniyatlarini berdi. Shu sabab Yevropaliklarning Islomga bog'liq noto'g'ri tasavvurlari o'zgardi. Bu jarayon hozirgi kungacha davom etib kelyapti.

<sup>1</sup>Кривелев И. Библия: историко-критический анализ. Т. 1 - М., 1999. –С.8

<sup>2</sup>O'sha joyda –С.27

Shu bugungi ma'rifatli zamonda ham Islomni maishiy buzqlik va bosqinchilik dini sifatida ko'rsatish harakatlari davom etmoqda. Shunisi hayron qolarliki, bu harakatlarning mualliflari ba'zi o'rta asr ilohiyotchilarining eskirgan va tarix tomonidan inkor qilingan, isbotsiz va bir yoqlama da'volarini oldinga surmoqdalar.<sup>1</sup>

Bu voqealarni A.V.Juravskiy o'zining «Христианство и Ислам. Социо-культурные проблемы диалога» kitobida batafsil tahlil qiladi. U yozadi: “Arablarning diniy harbiy yurishida juda katta hududlarda Islomning paydo bo'lishi, tez va mustahkam joy olishi SHarq nasroniyligining taqdirini hal qildi. Ular yangi dinni deyarli qarshiliklarsiz kutib oldilar. Bu birinchidan avvaliga, islomning nasroniylar e'tiqodiga sabrli ekanligida (albatta keyingilarning siyosiy qarshilik qilmaganlarida), ikkinchidan musulmonlarning ularni Vizantiya nasturiy va monofistlik zulmidan, chidab bo'lmas quvg'inidan himoya qilishlarida edi.

Shunisi muhimki, arablar avvalgi davrlarda nasroniylarga yunon tili o'rniga o'z milliy tillarini qo'llashni qonuniy qilib qo'yidilar (qibtiylar orasida VII-VIII asrlarda adabiyot uchun yangi rivojlanish to'lqinini paydo qildi). SHuning uchun nasroniylar tamomila yo'qolib ketmadilar, balki diniy va madaniy o'zliklarini saqlab qoldilar”.<sup>2</sup>

Nasroniy shaharlarni egallashda yo'l qo'yilgan shafqatsizliklar va vayron qilishlar to'g'risidagi da'volar butkul asosli emas, tarix fani va dalillarga zid gaplardir. Xalifalik qo'shinlarining Quddusga kirishida Xalifa Umar ra tomonidan Quddusning patriarxi Sofroniyga berilgan ahdnoma xati yaqqol misol bo'ladi:

Mana shunday ahdnomalarni barcha musulmon harbiy sarkardalari nasroniy shaharlariga kirishda o'z zimmalariga olishgan. Ular asosida Muhammad payg'ambarning Najron nasroniylari bilan tuzgan sulhlari yotadi. Musulmon tarixchisi Tabariy mashhur musulmonlar qo'mondoni Xolid ibn Validning Baniqiyya va Borusma ahli bilan tuzgan sulh shartnomasi matnini keltiradi.

<sup>1</sup>Гуревич А. Средневековый мир - культура безмолвствующего большинства. М., 1990 г. –С.67

<sup>2</sup>Журавский.А.В “Христианство и Ислам. Социо-культурные проблемы диалога” М., 1997

Keyin A.V Juravskiy Islomning boshqa din vakillari bilan birgalikda yashash muammolari islom ta'limotiga mos kelishligi to'g'risida yozadi: “Qadimiy Islom insonning 3ta fuqarolik martabasini tan oladi: a) musulmon, b) zimmiy, v)mushrik. Zimmiylar – “ahli kitoblar”, ya'ni Ilohiy vahiy yuborilgan, xudoga, payg'ambarlarga, qiyomat kuniga imon keltirgan yahudiylar va nasroniylar. Ularga g'ayri din jamoalar sifatida yashashlari kafolatlangan, shu shart bilanki, ularga barcha fuqarolarga tayin qilingan yer solig'i xirojni to'lash bilan birga, har bir jon boshiga jizya to'lash majburiyati bor edi”<sup>1</sup>.

Shu sababli musulmonlar yahudiylar va nasroniylarga kengbag'irlik bilan muomala qilganlar: “Umuman olganda musulmonlarning zimmiylarga (yahudiy va nasroniylarga) munosabatlari agar siyosiy va harbiy sabablar aralashmasa, bag'rikenglik bilan edi. Bu borada ortlarida hech qanday tashqi kuch bo'lmagan yahudiylarning hollari ancha yaxshi edi. Salibchilar bilan bo'lgan urush paytida ham musulmonlar, nasroniylarga salibchilar musulmonlarni dushman tutganidan ko'ra yaxshiroq munosabatda edilar.<sup>2</sup> Nasroniy va yahudiylarning Islom mamlakatlaridagi holatlari, o'rta asr Yevropa mamlakatlarida g'ayridinlar holidan yaxshi edi. Yahudiylar, hatta sharqiy nasroniylar Yevropa nasroniylik podshohlari ostida yashashdan ko'ra musulmonlar hokimiyati ostida yashashni afzal ko'rardilar”.

A.V.Juravskiy aytganiday “keyinchalik Islomning siyosiy va diniy jihatdan mustahkamlanishi bilan yaqin sharq nasroniylarining ko'pchilik qismi musulmonlikni qabul qildi, o'z dinlariga sodiq qolganlari esa umuman arablashib ketdi”. Bu o'tish ommalashib ketganda “ba'zi islom xalifalari nasroniylarning ommaviy ravishda islomni qabul qilishlaridan norozi ham bo'ldilar. Chunki bu Xalifalik xazinasiga zarar keltirar edi.”<sup>3</sup>

Nasroniy aholi deyarli barcha jamoat ishlarida qatnashar edi. “Eng ko'p foyda keltiradigan o'rinlarni qattiq va mustahkam egallab olganlar, ayniqsa bankirlar,

<sup>1</sup>Jуравский.А.В Христианство и Ислам. Социо-культурные проблемы диалога. –М., 2012. –С.65.

<sup>2</sup>Бахтин М. Творчество Ф. Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. -М., 1990 г

<sup>3</sup>Журавский.А.В Христианство и Ислам. Социо-культурные проблемы диалога. –М., 2012. –С.69.



yirik savdogarlar, matolar savdosi, katta yer egalari va tabiblar nasroniylar va yahudiylar edi.

Xuddi shunday holatlar bir muncha keyingi davrlarda davom etdi. Usmoniylar imperiyasi davri bunga yaqqol misol bo'ladi. "Diniy-jamoaviy tafriqalar Usmonli imperiyasi davrida yanada mustahkamlandi, qaysiki o'zining nasroniy fuqarolarini nafaqat diniy balki dunyoviy jihatdan ham jamoat tomonidan saylangan va Porto tomonidan tayinlangan patriarxlar hokimiyatiga bo'ysundirib alohida "millat" sifatida ajratdi. Natijada har bir diniy jamoa o'ziga xos siyosiy cherkov birligiga aylandi.<sup>1</sup>

Mana shunday rasmiy millatlar soni ko'payib bordi. Agar XV asrda sulton Mahmud II o'ziga qarashli nasroniylarni ikki jamoaga (birinchisini monofizitlar, ikkinchisini esa qolgan barcha nasroniylar tashkil qilgan) ajratgan bo'lsa, 1914 yilga kelib Usmoniylar imperiyasida 17 millat paydo bo'ldi. Shu bilan birga har biri Yevropa davlatlaridan birining himoyasidan foydalanar edi. Arab tarixchisi ta'kidlaganidek, "XVII-XVII asrlarda Sultonning nasroniy fuqarolari boy va obro'lik kishilarga aylandilar Yevropa mamlakatlari bilan mustahkam savdo, madaniy va ko'pincha siyosiy aloqalarni o'rnatdilar. Shuning uchun ham imperiyaning barcha qismlaridagi shaharlarda boy nasroniylar jamoasi rivoj topdi.

Bugungi kunda Indoneziya, Malayziya, Rossiya (Shimoliy Kavkaz, Tatariston va boshqalar), Afrika mamlakatlari (Sahroi Kabirdan janubdagi) aholisining katta qismi Islomni qabul qilgan. Bu mamlakatlarning birontasiga hech qachon Arab fotihining qadami tushmaganligini bilish uchun tarix mutaxassisi bo'lishshart emas. Shu bilan birga bizning zamonamizda amerikaliklar, Yevropaliklar va rossiyaliklar Islomni qabul qilishmoqda, tabiyki bu o'rinda kuch ishlatish majburlash to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup>Бахтин М. Творчество Ф. Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. –М., 1990. –С.75.

<sup>2</sup>Саидкасимов С. Ислам не приемлет насилие // Хуқуқ-Право-Лав. -2004. - Ҷ 4. - С. 68-78.

Islomiy xalifalikning oxirgi davridagi Usmoniylar saltanatining 1923 yilda ag'darilishi ortidan, nasroniy Yevropa Islom va xalifalik ustidan alamli va og'riqli yo'l bilan qozongan g'alabasini nishonlash uchun tantana o'tkazmoqchi bo'ldi.<sup>1</sup>

Islom tarixi asrlar osha siyosiy va mazhablarga asoslangan bo'lg'ash va qoralashning ashaddiy siyosati bilan qarshilashdi. Bu qoralashning har bir bosqichi o'zining qandaydir ko'rinishi bilan musulmonlar qo'lida amalga oshirildi. Bu tarix ichidan Usmonlilar tarixigina shu davlatga qo'rqinchli gina va adovatlar bilan to'lgan Yevropa va Yevropaliklar qo'li bilan qattiq qoralandi. Chunki Usmonlilar davlati Yevropa va Yevropaliklarga mag'lubiyat va inqiroz ta'mini uzoq asrlar mobaynida tottirib kelgan edi. Natijada, Yevropaliklar Usmoniy davlatining shonli tarixini bo'lg'ash uchun bor imkoniyatlarini safarbar etdilar va ularga xayollariga kelgan barcha salbiy narsalarni yopishtirdilar. U davlatning ijobiy yutuqlari haqida biron marta ham og'iz ochmadilar. Ular Usmoniylar tarixiga, salbiyliklarnigina ko'rsatadigan adovat va nafrat ko'zi bilan boqdilar.<sup>2</sup>

Shu bois bo'lsa kerak, Usmoniylar davlatining tarixini faqatgina Yevropaliklar yoki Yevropaliklarga maftun bo'lgan va ularning yo'lidan yurgan mahalliy yozuvchilargina ta'lif etdilar. Shuning uchun ham Usmonlilar davlati haqida insof va betaraflik bilan yozilgan kitoblarni nodir uchratish mumkin. Yevropa va arab manba'laridagi Usmoniy davlati barcha fazilatdan mosuvo va razolatlar botqog'i o'laroq salbiy ko'rinishda aks ettirildi. Usmoniylar davlati ko'pchilikning tasavvurida arablarni mustamlakaga aylantirgan, qirgan, talon-taroj etgan, mamlakatlarning yer osti va usti boyliklarini tashib ketgan, qonxo'r davlat o'laroq shakllandi. Uning qoloq va manqurt ekani qalamga olindi. Yevropaliklar tasavvurida bu davlat terrorchi, bosqinchi, urushqoq, go'daklarni o'g'irlyadigan, xotin-qizlarga tajovuz qiladigan, o'lkalarni bosib oladigan va resurslarni oyoq osti qiladigan zolim bosqinchi ko'rinishida aks ettirildi.<sup>3</sup>

Zero Yevropa 857 yilda mashhur sarkarda Muhammad Fotih rahimahulloh qo'mondonligida Usmoniylarning o'z davrida Xristian olamining poytaxti

<sup>1</sup>Еремеев Д. Ислам: образ жизни и стиль мышления. –М., 1990. –С.87-89.

<sup>2</sup>Еремеев Д. Ислам: образ жизни и стиль мышления. –М., 1990. –С.87-89.

<sup>3</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish). – T., 2005. –B.87.

hisoblangan Konstantinopolni fath etib, Aya Sofiya cherkovini masjidga aylantirganlarini hech unutmadi. Chunki bu, Islomning xristian dini ustidan qilgan katta g'alabasiga ishora edi. Bundan tashqari Usmoniylar davlatining o'z sarhadlarini kengaytirib, Yugoslaviya, Vengriya, Polsha, Rossiyaning yarmi, Bolgariya, Ruminiya, Gretsiya tuproqlarigacha kirib borishi hamda uch qit'a osha viloyatlarining gurkiragani, Yevropaliklar yuragini hali ham ezmoqda.<sup>1</sup>

Yevropa musulmonlarning jahonning turli burchaklarida salibchilarga qarshi qanday kurashganlari: Andalusiyadagi musulmonlar boshiga kelayotgan zulmni yengillatish uchun Yevropasharqiga hujum qilganlari. Arab ko'rfazining janubi va Afrikaning sharqida portugaliyaliklar, Afrikaning shimoli va O'rta yer dengizi sohillarida ispanlar, O'rta Osiyoda ruslarga qarshi kurash olib borganini unutmadi. Yevropaliklar musulmonlar sarhadi ichiga kirgan tuproqlarni, Usmoniylar davlati yiqilishidan bir oz avvalgina mustamlaka qilishga qodir bo'ldilar. Usmoniy davlati hududiga kirmagan Hindiston, Indoneziya va Malayziya kabi davlatlar Yevropaning qonli panjalariga ancha erta tushgan va Ikkinchi Jahon Urushidan keyin buning achchiq asoratlarini totgan edi.<sup>2</sup>

Yevropaliklar Usmoniylar davlati Islom dinini Yevropaning turli burchaklariga yetkazgani, musulmon bo'lgani uchun butun Yevropa, jumladan, Yevropaning sharqida yashayotgan xalqlar Usmoniyatlardan qarzdor ekanini va Yevropadagi musulmon muhojirlarning aksari turklar ekanini hech qachon unutmadi. Buni ko'p musulmonlar bilmasada, (o'tgan asrning) to'qsoninchi yillarida bo'lib o'tgan qonli Bosniya-Gertsogoviniya urushi buni oshkora qildi.

Yevropa solnomasidan o'chmagan yana qancha narsalar borki, ularning asosiy sababchisi Usmoniylar davlati edi. Yevropaliklar Birinchi va Ikkinchi Kosovo urushlarini, Vena, Belgrad, Nikopolos, Varna, Konstantinopol va boshqa ko'plab urushlarni, bundan tashqari, Usmoniylar davlati fath etilgan Yevropa davlatlaridagi yetim bolalarni olib, ularga islomiy tarbiyalar berib, "yenicheri"

---

<sup>1</sup>O'sha joyda. –B.92.

<sup>2</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.95.

(уанычагы) nomli harbiy polk tuzgani va ular uzoq asrlar davomida Usmoniylar davlatining shukhi va faxri bo'lganini hech unutmadi.

Yevropaliklar, ular yo'lidagi sekulyar insonlar hamda Yevropaga mahliyo bo'lganlar, Usmoniylar davlatiga gina saqlashmoqda, undan butunlay nafratlanishmoqda.<sup>1</sup>Yevropaliklar qo'lida Usmoniylar davlati va turklar boshiga kelgan katta musibatlarga qaramay, hanuz Usmoniy musulmonlarni adovati tinmaydigan, nafrati unutilmaydigan ashaddiy tarixiy dushmani o'laroq ko'rmoqda. SHu bois, ular, Usmoniy davlat shavkatini eslatgan va xotirlatgan har qanday fikr va loyihaga olib boradigan barcha yo'llarni to'sish uchun imkoniyatlaridagi bor kuchlarini sarf etishmoqda.

Shu kunlarda oynai jahonda namoyish etilayotgan “Muhtasham yuz yil” (Velikolepnyy vek) turk teleseriali, Usmoniy sultonlarning eng buyuklaridan biri-Sulaymon Qonuniy rahimahulloh hayotini g'arazgo'ylik bilan tasvirlagan. Holbuki, Sulton Sulaymon rahimahulloh zamonida Usmoniylar davlati qudrati bilan gurkiragan, shavkati va sarhadlari jug'rofiy nuqtai nazardan chor atrofga yoyilgan, siyosati, iqtisodiy va ijtimoiy tizimi ustivor, harbiy qudrati va diplomatik zakosi ustun bo'lgan hatto Yevropaliklar sulton Sulaymon Qonuniy rahimahullohga “Buyuk” laqabini berishgan edi. Sulton Sulaymon Qonuniy rahimahulloh mashhur Vizantiya imperatori SHarlkanni mag'lubiyatga uchratib, Venani qamal qilgan va uni fath qilishiga oz qolgan edi.

Serialning stsenariy muallifi, rejissyori va montajchilari tomoshabinlarga Usmoniy davlatni eng xunuk va rasvo suratda namoyish qilishmoqchi bo'lgan. Stsenariy muallifi yaqinda rak kasali sababli olamdan o'tdi. Serialda sultoni, vazirlari va davlat arkoni sharobxo'rlik, xotinbozlik va haram oshig'i bo'lgan davlat ko'rsatilgan. Haramda o'tirish, joriyalardan birining quchog'idan chiqib ikkinchisiga oshiqish, u va bu xotinlarning chaquvlarini tinglashdan boshqa biron maqsadi bo'lmagan, o'z ayshu ishrati va shahvatidan boshqa ishi qolmagan sulton aks ettirilgan. Bu Yevropalik tushunchasi va madaniyatida musulmonlar ommasi va xususan esa Usmoniylar davlatidagi musulmonning ko'rinishidir. Holbuki,

---

<sup>1</sup>O'sha joyda. –B.96.

sulton Sulaymon Qonuniy rahimahulloh o'ttiz yil davomida dunyoning turli chekkalarida muttasil g'azavotlarda ishtirok etgan, faqatgina, keksaygan chog'larida (poytaxtda) istirohat etishni tanlagan edi.<sup>1</sup>

Bu qisqacha tarixiy sharhdan ma'lum bo'ldiki, Islomni zo'ravonlik va shafqatsizlik dini sifatida namoyon etish harakatlari biror bir tarixiy asosga ega emas.

Yevropaning maqsadlari Islom ummatining shonli tarixidan nafratlangan va sekulyar odamlar tomonida tarixni bo'lg'agan, sharaflı kunlarni oyoq osti qilgan, salbiylıklarnı ko'rsatib, xato va kamchıllıklarnı bo'rttirgan, haqiqatlardan yiroq, yangı avlod tasavvurıda gullab yashnagan Islomıy tarıx haqıda xunuk va rasvo ko'rınışnı aqlarnı jalb etadıgan, diqqatlarnı tortadıgan serial va film tarzıda kirib kelmoqda.

Yevropa bugun ham Islom va musulmonlar bilan hisoblashmoqchi va buning uchun Islomning o'zi va uning shonli tarixidan intiqomini olishga harakat qilmoqda.

### **2.3. Islom dinining Yevropa davlatlarida siyosıylashuvınıng istıqbolları.**

Bugun dunyo oilanıng maqomı to'g'risıdagi munozaralar avj olgan davrda yashamoqda, U "tushkun" shimol hamda taraqqıyparvar, lekin qashshoq Janub o'rtasıdagi mafkuravıy to'qnashuvlar markazıda turıbdi. Bu to'qnashuvlarnıng qoq markazıda bo'lgan Yevropadagi musulmonlar jamoası o'z o'rnını topısh va omon qolıshga o'rinmoqda. Madanıyatlar to'qnashuv taraflar uchun o'zlıkni anglash ma'nosıda muhım hayotıy ahamıyatga ega, bugunı kunda hech kim bu jarayondan chetda tura olmaydı.<sup>2</sup>

Hozırđı kunda shimolning qotib qolgan qarashları va qat'ıy tarzda oilada yashashga o'rgangan Uchinchi dunyoning xastalıkları, u yerda istıqomat qiladıgan aholıning liberal demokratik jamiyatlardagi kabi ijtimoiy aqıdalarga mos tarzda

<sup>1</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qıblanı topısh).– T., 2005. –B.99.

<sup>2</sup>O'sha joyda –B.99.

yashashni mutlaqo istamasligi xususidagi hujjatli filmlarning intihosiz va jiddiy gumanitar parhezi allalagan tahlikasini kuzatishga majbur bo'lamiz. O'rtacha g'arb kishisi bunday biryoqlama munozaradan qanoat hosil qiladi va uni tabiiy hol deb tushunadi. Natijada u, o'zim yashayotgan sharoit Uchinchi dunyoga nisbatan yaxshiroq, degan xulosaga keladi va uning jamiyatdagi muammolardan asabiylashuvi kamayadi. Bunday vaziyat shunday jamoatchilik fikrini shakllantiradiki, unga ko'ra, falastinlik, bosniyalik yoki zapatistalarni juda oz miqdorda aybdorlikni his qilish bilan (biroq o'zini haq deb bilgan holda) yo'qotish mumkin bo'ladi. Aslida, munozara qiluvchilar feminizm va gomoseksualizmni Uchinchi dunyoni savalash uchun kaltak o'rnida ishlatayotganiday, modern G'arbning ijtimoiy aqidalari mingyillikning so'nggi yillarida imperialistik mafkuralarga aylanib bo'lgan. Bundan yuz yilcha muqaddam Yevropaliklar teologik dogma va tijorat bilan hammaning joniga tekkan edi, endilikda esa ijtimoiy dogma va tijorat bilan xuddi shunday qilishyapti. Biroq asosiy munosabat bo'lmish nafrat juda sekinlik bilan o'zgarmoqda.<sup>1</sup>

G'arbda yashaydigan musulmonlar ushbu masalada qiziq bir ustunlikka ega. Ko'pgina islom ilohiyotshunoslari musulmon dunyosidagi "g'arblashtirish jarayoni" va uning oila hayotiga sharmandalarcha ta'siri haqida yozayotgan bir paytda, ulardan ayrimlari qayd etganiday, ko'hna dunyoviy elita bu jarayonni himoya qilgani chin haqiqat bo'lib, uning madaniy qurilmalari eski imperialistik davlatlar qo'lga kiritgan yutuq edi. O'rtacha dunyoviy suriyalik yoki turkning turmush tarzi zamonaviy Yevropalikning turmush tarzidan o'zaro farq qiladi.<sup>2</sup>Uning kiyimlari, sharoiti, nikoh bilan bog'liq marosimlari va boshqa ikir-chikirlari bugungi G'arb turmush tarzi voqeligi bilan solishtirganda, 40-50-yillarni eslatadi. Shunday qilib, musulmonlarning oiladagi o'zgarishlarga oid asosiy munozaralari "erkinlashgan G'arb"ning qoq markazidagi biz yashab turgan vaziyatga mos bo'lishga bir oz moyildir.

<sup>1</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.107.

<sup>2</sup>Xudoyberdiyev O. Shariat va fiqh // Huquq–Pravo–Law. – 2004. –ġ 4. – B. 67.

G'arblik musulmonlar o'z sharoitini nazariylashtirishga harakat qilayotgan sharoitda g'ayri oddiy voqealarga duch kelyapmiz: biz qo'shib keta boshlagan madaniyat endilikda yo'qlikka yuz tutdi. Hatto yaqin-yaqinlarda: XX asrning 50-yillari va 60-yillarining boshida ham ulug' diniy an'anaga asoslangan Yevropadagi oilaviy qadriyatlarni tanib olish mumkin edi. Islom va xristianlik o'rtasidagi doktrinaga oid bahslar keskinligicha qolgan paytda, musulmonlar va xristianlarning axloqiy va ijtimoiy qarashlari aksariyat hollarda bir-biriga juda yaqin edi.<sup>1</sup>

Yevropalik musulmonlar, ba'zi musulmon davlatlarida ro'y berganidek, islomning qashshoqlashib borayotgan va o'z "mafkurasi"ga qarshi tura bilmasa, samimiy tashvishlanishga asoslangan e'tiqod shakli shamoyilini qaytarishga harakat qilmasa, biz real vaziyat yuzasidan muayyan masala bo'yicha keng bahslarga o'z hissamizni qo'sha olmaymiz.

Hozir ayni shunday himoya paytidir. Keyingi yillarda britaniyalik bir necha diniy arbob oilaning taraqqiyot bilan bog'liq inqirozi fojiasi xususida o'zlarining ko'pincha iztirobli, umuman olganda, ishonchli mulohazalarini bildirishdi. Liverpool yepiskopi va bosh ravvin ushbu jarayon xususida odatdagi statistik ma'lumotlar yordamida mana bunday xulosa chiqaribdi: "Britaniyada bolalarning 34 foizi nikohsiz tug'ilmoqda;<sup>2</sup> taxminan shuncha miqdordagi katta yoshlilar ajrashish alamidan aziyat chekmoqda; kelgusi yigirma yil davomida britaniyalik bolalarning yarmidan ozrog'igina ota-ona tarbiyasini oladi va hokozo. Juda oz kishilargina quyidagi amaliy falokatlarga shubha bilan qaraydi: ma'lum bo'lishicha, AQShda qamalgalarning yarmidan ko'pi buzilgan oilalar farzandlari ekani, ota-onasining ajrashgani tufayli yetkazilgan kuchli ruhiy zarba erkak va ayollarga o'rta yosh, hatto keksalik chog'ida ham salbiy ta'sir ko'rsatib turishi aniqlangan. Yepiskop ham, ravvin ham bugungi tez o'zgarib borayotgan dunyoda oila boshpanasiga bolalar qatori kattalar ham hech qachon bu qadar muhtoj bo'lmaganidan birday tashvish chekadi, uni gunohlarning eng og'iri-xudbinlikkina

<sup>1</sup>Timoti Uinter. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.111.

<sup>2</sup>Encyclopedia Britannica Book of the Year. –L., 2010. –P.238.

barbod qilishi mumkin, deydi. Hech kim o'zini qurbon qilishni istamaydi: barchamiz shaxsiy erkinlik deb atalmish ma'budga topinar ekanmiz, huquqlarimiz haqida jar solamiz, mas'uliyatimiz borligidan esa asabiylashamiz.<sup>1</sup> Hayotdan olinadan saboq bizni nechog'li asabiylashtirmasin, bir narsa kundek ravshan: Adam Smitning raqobatbardosh xususiy manfaat himoyasini ulug'lashini kollektiv ijtimoiy rivojlanishning kaliti deb bilgan Tetcher-Reygan egotsentrizmi butun boshli tashabbusga xavf tug'diruvchi ko'plab baxtsiz hodisalarni talab etadi. Ochko'zlik ko'plab badavlat kishilar va moliya vazirlarini paydo qiladi, biroq endi uning xunini to'lash uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi, bugun mana shu vaqt boshlandi. Qo'shimcha qo'riqchilar, qamoqxonalar, ijtimoiy xizmatchilar va ijtimoiy ta'minot to'lovlarining kun-bakun kuchayib borayotgan qor bo'roni millionlab ijtimoiy va iqtisodiy chek qog'ozlarini uchirib yuribdi. Sotsialistik inqilob barbod bo'ldi; pirovardida kapitalizmni o'z ziddiyatlari bo'g'ib tashlashi ham mumkin.<sup>2</sup>

Shu yergacha hammasi ravshan. Ochko'zlikning gunohligi dindorlardan boshqalarga ham tushunarli ekani xususida bahs qilib o'tirishshart emas. O'tgan asrlarda fidoiylikka qaytish haqidagi ko'plab da'vatlar odamlarning ensasini qotirar ediki, ularni biror qaror qabul qilish uchun yetarli deb bo'lmaydi. Modomiki, dinlar insonlar qilgan gunohlar oqibatini bartaraf etar darajada qudratli ekan, "yaxshi bo'lish" uchun yolvorish kamdan-kam hollarda ta'sir kuchiga ega bo'ladi, unga islohotlarning amalga oshirish mumkin bo'lgan paradigmasi yo'ldosh bo'lishi kerak. Ravvin ham, yepiskop ham real va muayyan narsadan boshqasini taklif etishi qiyin; bu siyosatchilar va liberal OAV murosa qilgan, hattoki, yo'l sifatida tanlagan narsa bo'lsa ajab emas. Biroq biz maqomi muayyan ijtimoiy, shuningdek, ma'naviy dasturda "millatlarga saxiylik" deb bayon etilgan vositachi orqali diniy erkinlik bilan siylangan musulmonlar sifatida bilamizki, jamiyatning mavjud og'ir ahvolini hech qachon va'zgo'ylik bilan tuzatib bo'lmaydi. Struktural o'zgarishlar ham talab etiladi: biz muammoning tortish kuchi

---

<sup>1</sup>O'sha joyda. P.239.

<sup>2</sup>Timoti U. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.117.



ta'siriga tushib qolib, bunday o'zgarishlar og'riqli bo'lishi mumkinligidan ajablanmasligimiz kerak.<sup>1</sup>

Biroq siyosat muhitning eng qayg'uli namunasidir. Eronliklar uni “olov va paxtaning apoq-chapoqligi” deb ataydi. Ilgari hech qachon jamiyatda xiyonat uchun imkoniyatlar shu darajada ko'payib ketmagan edi, bu holni axloqsizlik tarafdori bo'lgan jurnalist ham, siyosatchi ham va ijtimoiy strateg ham ko'rmasligi mumkin emas.

Tashxis keskin ekani ko'rinib turgan bo'lsa-da, uning davosi bormikin? Islom xilvat yoki “noqonuniy tarzda yolg'iz yashash”ni G'arb kishisi tasavvur ham qilolmaydigan darajadagi jinoyat deb biladi. Har bir ma'naviy falokatning o'z peshravi-darakchisi bo'ladi; islom bunday peshravlar paydo bo'ladigan ijtimoiy sabablarni kamaytirish yo'lini axtaradi. Shunday qilib, bizning vazifamiz bir kishining faqat bir kishi bilan jinsiy aloqa qilishi kerakligidan ta'lim berishdir<sup>2</sup>.

Nyutonning kuzatishicha, tabiat bo'shliqni yoqtirmaydi; ushbu qoida fanning maqomiga bo'lgan psixologik munosabatni yaxshilashga yordam berishi mumkin. Dunyoviy qarash ham anglash mushkul, ham mavhum bo'lishi mumkin, biroq dindorlar uchun Yangi Ijtimoiy Aqidalar tez orada yangi diniy qarashlar shaklini olishi mumkin. Yigirmanchi asrning ulkan erkinliklari ko'pincha dinni harakatga keltiruvchi quvvatning kuchli poklovchisiga o'xshab ko'rinadi. Dunyo tashvishlaridan va “men”ni tiya bilishdan qutulishday tug'ma istak shaxs erkinliklarini cheklashga qarshi qattiq varaja-konvulsiyaga aylanayotgani ajablanarlidir.

Shu ma'noda, siyosiy jihatdan to'g'ri yo'l tutayotgan G'arb kuchli diniy jamiyatdir. Uning o'z dogmalari, ilohiyotshunoslari, ruhoniylari, jabrdiydalari, Amerikadagi universitetlar shaharchalariga va'z-axloqnomalarni yetkazib borgan missionerlari va kufri yer bilan yakson qiluvchi yaxshi rivojlantirilgan nazariyasi bor.

---

<sup>1</sup>O'sha asar. –B.119.

<sup>2</sup>Xudoyberdiyev O. Shariat va fiqh // Huquq–Pravo–Law. – 2004. –ǵ 4. – B. 67.

Ba'zi bir kishilar bularning barchasini zarur, chunki odamlar ishonch va asosga muhtoj, chin e'tiqodsiz o'zlarini G'arbda idora etolmay qolishi va qonunbuzarlik yo'liga kirib ketishi mumkin, deb biladi. Ammo, hamma balo shundaki, ayni paytda qonunchilik, maktab o'quv rejasi, eshittirish va ko'rsatuvlarni boshqarish qoidalariga aylangan yangi aqidalar, haqiqiy yangi din vazifasini ham o'tay olmaydi yoki uning o'rnini bosolmaydi. Diniy axloq, musulmonmi, xristianmi, buddaviymi, yoki eskimosmi, bundan qat'i nazar, o'ziga yuklangan mas'uliyatni sharaf deb biladigan shaxsning o'zligini namoyon qilishg'oyasi orqali jamiyatda hamjihatlikni ta'minlaydi<sup>1</sup>. Bunga mutlaqo teskari bo'lgan G'arbning yangi dini unga huquqlardan lazzatlanish orqali erishiladi, deb o'rgatadi.

Ushbu ters holatning ekstremizmga xos ekanini inobatga olsak, u ta'sir ko'rsatayotgan jamiyatlar qiyin ahvolga tushib qolishidan ajablanmasa ham bo'ladi. Konor Kruiz O'Brayenning mulohazasini o'zgartirib, dunyoviy ijtimoiy tibbiyot bilan bog'liq ko'ngilsizliklar shundan iboratki, u qanchalik ko'p qo'llansa, mijoz shunchalik kasal bo'lib boraveradi, deyish mumkin.<sup>2</sup> Yangi e'tiqodlar bizni porloq va erkin xomxayolga yetaklash o'rniga ijtimoiy illatlarimizni yanada chigallashtirib yubordi, deyish kufr bilan barobardir. Biroq aynan shunday bo'lgani bor gap. Boz ustiga, xushmuomalalik hukmron bo'lgan jamiyatda soxta din bunday buzg'unchilikka boshlagan tushunchalar tanqid qilinmasligiga kafil bo'ladigan darajada kuchlidir

Ushbu asrda ro'y bergan erkinlik uchun kurashlarning o'ziga xoslaridan biri feminizmdir. Ba'zilari ehtiyotkor va dalillangan, boshqalari esa jodugarlik va o'z jinsi vakilasini sevish singari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan son-sanoqsiz darbadar tamoyillarga bo'linib ketgan bu harakat xususida bir necha umumlashmalar qilish mumkin. Biroq buni kuzatishni boshlash uchun eng qulay vaqt ayollarning o'zlari istamagan holda viktorianlarning feminizmoldi va yigirmanchi asrning so'nggidagi feministik qadriyatlar qurboni bo'lgan paytidir.

---

<sup>1</sup>O'sha joyda.

<sup>2</sup>Timoti U. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.123.

Ayollarning erlaridan alohida moliyaviy yoki huquqiy sub'ekt sifatida ajralib yashashi mumkinligini rad etgan an'anaviy xristian madaniyatlarida xotin-qizlar qonundan tashqarida qolishdan aziyat chekar edi. Bu holni ularning aksariyati hech ikkilanmay qabul qilishi mumkin edi, ammo ijtimoiy yordam bermay qo'yilgan ayollar real adolatsizlik qurboni bo'lishdi, oqibatda ular mustaqil yashashga ehtiyojmand ekanini anglab yetishdi. Shu tariqa ayollarning saylovlarda ovoz berish huquqiga ega bo'lgani chin ma'noda adolat izlash natijasi edi. Bu hol G'arb jamiyatini xristian an'analaridan islom me'yorlari tomon burib yubordi. Unga ko'ra, ayol hamisha, hatto turmushga chiqqanidan so'ng ham qonuniy sub'ekt hisoblanadi, uning mulki, familiyasi, vorislik huquqi va da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqi saqlanib qoladi.<sup>1</sup>

Go'yoki so'nggi 30 yil davomidagi yangi feminizmdan musulmonlarning paytavasiga qurt tushib qolgan, qabilidagi gaplar Freyden, Greer va Dalining jangari va mafkura suvi yuritilgan dunyoqarashidan boshqa narsa emas. Ushbu mutafakkirlar nafaqat jamiyatdagi struktural adolatsizlik, qolaversa, erkak va ayollarning identiteti xususidagi fundamental qarashlarga qarshi hujum qilish bilan yangi bir bosqichni boshlab berishdi. Simon de Beovo (Beauvoir): "Onalik instinkti bekor qilinmaguncha, ayollar qulligicha qolaveradi", deb yozgan edi; yangi feministlarning bunday baqir-chaqirlarini har qadamda eshitish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, an'anaviy tarzda ayol deganda, noziklik, erkak deganda esa jasorat esga tushishi biologik va axloqiy nuqtai nazardan asossizdir. U "patriarxat" deb ataluvchi butun boshli an'anaviy binoning tayanchi sifatida hujum qilib turish ob'ekti bo'lgan.

Ayollar o'rtasida erkaklar bilan faoliyatning mutlaq tenghuquqliligini talab etuvchi ortodoksal feminizmga isyon belgilari zuhur bo'lmoqda. Ommaviy axborot vositalari bong urayotganining aksi o'laroq, ziyoli ayollar bola boqish uchun "chetga chiqib qolish"dan hazar qilayotgani yo'q. Lekin haqiqiy zarar yetkazib bo'lindi.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup>O'sha joyda. –B.127.

<sup>2</sup>Timoti U. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.129.

Bunday qayg'uli vaziyatda ajrashish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Ota ham, ona ham ishlaydigan oiladagi siqilishni oddiy kishilar yenga olmaydi. Daromadning oshishi va (ba'zi birovlar uchun) ishdan olingan lazzat charchoq va tortishuvlar ehtimoli kuchayishining o'rnini to'ldirishi qiyin. Ayolning oilani o'z mehri bilan isitishidan mahrum bo'lgan ota va farzandlar o'zini xavfsiz his eta olmaydi. Er-xotinning birday ishlashi intihosiz tortishuvlar uchun zamin hozirlaydi. Ajrashishgali kelganda esa, aksariyat hollarda ayol kishiga jabr bo'ladi. Qariyotgan yolg'iz ona sifatida u jamiyat o'ziga mutlaqo qiziqmay qo'yganini anglay boshlaydi. U "davlatning xotini" deb ataluvchi yangi sinfga borib qo'shiladi.

Davlat ko'pxotinli bo'lishi mumkin. Yangi Yevropani ijtimoiy jihatdan anglash soliq daromadlarining keskin ko'payish davriga to'g'ri keldi. Siyosatchilar orasida ijtimoiy inqiroz darajasi yillik yalpi ichki mahsulot o'sishidan o'zib ketmagan bir vaziyatda bu borada qayg'uruvchilar kamdan-kam topiladi. Yana millionlab yolg'iz oilalarning taqdiri achinarlidir. Daromad manbai yagona bo'lgan oilalar ayollarga bola boqishday muqaddas burchni oyoq osti qilish emas, bajarishga izn berilishi liberallar taxmin qilganidan ham ko'ra ko'proq ma'naviy ahamiyatga ega ekanini yaqqol tasdiqlab turibdi.

Ammo feministlar ijtimoiy matoni kemirayotgan yagona kuya emas. Yana boshqalari ham borki, ularning ba'zilari haddan ziyod radikaldir. Ularning eng keskini gomoseksualistlardir, qiziq, ammo doimo jirkanch mafkuralardir, ular aholiga oilalar uchun oqibati halokatli bo'lgan dogmalarni tiqishtiradi.

Vilfred Tezigerning yozishicha, u o'zining arab badaviylari bilan uzoq sayohatlari davomida hech qachon odamni kamsitadigan bunday amaliyotga duch kelmagan. U boshqa jamiyatlarda, xususan, zamonaviy shahar madaniyatlarida juda keng tarqalgan. Nega aynan shunday bo'lishi kerakligi xususidagi nazariyalar tiqilib yotibdi: ba'zi bir tadqiqotchilar aholi haddan ziyod ko'payib ketgan jamiyatlarda bu tamoyil tabiatning nufus o'sishini nazorat qilish usulidir, deb safsata sotadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>Timoti U. XXI asrda islom (Postmodern dunyoda qiblani topish).– T., 2005. –B.132.

## XULOSA

Jahondagi turli mintaqalar qatori Yevropada ham Islom dinining kengayib jamiyat hayotiga kirib borishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mintaqa zamonaviy davrda jahon siyosatida o'zining geostrategik holati ko'ra bevosita ichki va tashqi manfaatdor kuchlar joylashgan hudud sanaladi. Shu bois Yevropadagi davlatlarning siyosiy holati, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati, ularning ma'naviy qadiryatlari va diniy ongini shakllanishini o'rganish mintaqadagi mavjud, tarixan shakllangan an'analar, bugungi kundagi jamiyat hayotidagi barcha sohalaridagi o'zgarish va islohotlarni o'rganish bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda ayna Yevropada islom dinining kengayishi va jamiyat hayotidashakllanish muammolari tahlil etilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

**I.**Din o'z tabiatiga ko'ra o'ta murakkab ijtimoiy xodisa bo'lib, u g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga nisbatan ishonchning xosilasidir. „Din” atamasi arab tilidan tarjimada „ishonch”, „ishonmoq” degan ma'nolarni anglatadi.

**II.**Islom dinining vujudga kelishi tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega ekanligi va hozirgi kunda nafaqat ijtimoiy balki siyosiy jihatdan ham butun dunyoga ta'sir qila olishi imkonyati mavjudligi.

**III.**Islom dinining vujudga kelishi va rivojlanishini umumiy asosda o'rganish murakkab ijtimoiy-ilmiy hodisa sanaladi hamda islom dinining rivojlanishini va hozirgi kundagi faoliyatini tadqiq etishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyatga ega:

*Birinchidan,* mintaqa davlatlarining siyosiy ma'danyati va diniy e'tiqodideyarli bir xil hisoblanadi;

*Ikkinchidan,* Yevropadagi davlatlarining diniy qarashlarini o'zgarishi va ma'naviy tushkunlik va qashshoqlikning saqlanib qolinishi, diniy omilning davlatlar ichki siyosatidagita'sirining mavjudligi;

*Uchinchidan*, Yevropaning iqtisodiy jihatdan rivojlangani va boy an'ana va yuksak ma'daniyati mavjudligi mintaqa davlatlarining ma'naviy hayotiga nisbatan islom dinining ta'siri ortib borishi mamlakatlar ichki siyosatida o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

**IV.** Yevropa mintaqasida jumladan Fransiya, Germanya, Buyuk Britaniya, Polsha va MDH mamlakatlarida islom dinining kirib kelishi va tarixiy ahamiyati va jamiyat hayotidagi olib kelayotgan o'zgarishlari, hamda bir qator umumiy jihatlarni kuzatish mumkin:

*Birinchidan*, Yevropa davlatlarining barchasida islom dini shiddat bilan kirib bormoqda.

*Ikkinchidan*, islom dini nafaqat jamiyat hayotiga, balki Yevropa madaniyatiga, ayniqsa davlatlar siyosatiga ham katta ta'sir o'tkasmogda

**V.** Yevropada xristianlik dinining mavqeyi pasayib bormoqda. Bu esa jamiyat hayotida, turmush tarsi va eng asosiysi davlatlar siyosatiga katta ta'sir o'tkazishi mumkin.

Umuman olganda, bugungi kunda Yevropa davlatlarida islom dinining kengayishi davom etarkan, bu ikki dinning o'rtasida to'qnashuvga olib kelishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

**1. Rahbariy adabiyotlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –364 б.
2. Каримов И.А.. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. –Т.10. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –432 б.
3. Каримов И.А.. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. –Т.12 –Т.: Ўзбекистон, 2004. –400 б.
4. Каримов И.А.. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
5. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. –Т.17. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –326.б.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008. – 176 б.
8. Каримов И.А. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисида сўзланган нутқ. // «Халқ сўзи». 2010 йил 22 сентябрь.
9. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислом Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18

йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// Халқ сўзи,  
2010 йил 8 декабрь.

## **2. Kitoblar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar va monografiyalar**

10. Ахмедов Д.К., С.М.Хидиров., Маликова Г.Р., Чўлиев А.В., Хотамов У.Ж., Асадов Ш.Ф. Ахмедов А.Д. Хорижий мамлакатлар Конституциявий (давлати) ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. –375 б.
11. Бойдадаев М. Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви тизими шаклланиши ва ривожланишининг ҳуқуқий асослари. –Т.: Академия, 1999. –184 б.
12. Ворисов А.В. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта (XX век). –М., 2009. –376 с.
13. Вромхед П. Эволюция Вританской конституции. –М., 2008. – 348 с.
14. Гиясов Б., Камилжанов А., Мустапова Х. Международные отношения и Дипломатия на современном этапе - Т.: ТашГИВ, 2009. – 318 б.
15. Дюги Л. Конституционное право. –М., 2008. –436 с.
16. Ёвкочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. –Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. –252 с.
17. Жумаев Р. Ўзбекистонда: сиёсий ислохотлар жараёнлари. –Т.: Академия, 2010. – 286 б.
18. История Ирана. XX век. –М.: Ин-т востоковедения РАН: Крафт+, 2004. – 411 с.
19. Лазерев В.В., Липень С.В. Теория государства и права . –М., 1998. – 341с.
20. Мижув П.Г. Парламентаризм и представительная форма правления в главных странах современной Европы. – СПб.: Юристь, 2006. –461 с.
21. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. – М.: Политиздат, 1955 . –368 с.



22. Парламентаризм: хорижий мамлакатлар тажрибаси / Тузувчилар: И.Комилов, Ф.Вакаева, А.Абдуллаев, Р.М.Алимовнинг умумий тахрири остида. –Т.: Шарқ, 2004. –362 б.
23. Парламентское право России / Под редакцией И.М. Степанова. – М.: Юристъ, 2000. –385 с.
24. Проблемы общей теории права и государства / Под общей ред. В.С. Нерсесянца. – М.: Юридическая литература, 1999. – 423 с.
25. Романов Р.М. Парламентаризм: теория, история и современность – М.: Мирос, 2002. –408 с.
26. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты. –М.:КАНОН-пресс, 1998. –416 с.
27. Саидов А.Х. Межпарламентские организации мира: справочник. – М., 2004. –347 с.
28. Сапронова М.А. Государственный строй и конституции арабских республик. –М., 2003. –168 с.
29. Ўзбекистон Республикаси Парламент ҳуқуқи: Ўқув қўлланма/ Масъул муҳаррир: проф. А.Тулаганов. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. –276 б.
30. Уэйд Е., Филлипс Г. Конституционное право. –М., 2003. –370 с.
31. Чиркин В.Е. Конституционное право зарубежных стран. –М.: Юрист, 2001. –354 с.
32. Ғофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. –240 б.
33. Шарапов С, Каримова Н, Шарапов А, Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран востока и запада. – Т.: Фан, 2006. – 404 с.
34. Cordesman A.H., Burke A.A. Saudi Arabia Enters The 21st Century: III. Politics and internal stability - Final Review / Center for Strategic and International Studies. –Washington, 2002. –332 p.
35. Habibi M., Jafari P., Jones-Nerzic R., Keys D., Smith D. History of Europe and the Middle East. –Oxford, 2010. –428 p.

36. Ottaway M., Muacher M. Arab Monarchies. Chance for Reform. Yet Unmet // The Carnegie Papers. Middle East / December 2011 / Carnegie Endowment for International Peace. – Washington DC., 2011. – 97 p.

### 3. Avtoreferatlar

37. Абдусатторов А.А. Форс кўрфази араб давлатлари ташқи сиёсатида “ислом омили”нинг сиёсий таҳлили. с.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. –Т.: ТошДШИ, 2005. –26 б.
38. Абдуллаев Н.А. Региональная политика Сирийской Арабской Республики в свете ближневосточного урегулирования. Автореф. дисс. ...канд. полит. наук. – Т.: ТашГИВ, 2000. –28 с.
39. Муҳаммадсидиков М.М. Саудия Арабистонининг Қизил денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлаш сиёсатининг хусусиятлари. С.ф.н. олиш учун диссер.автореферати. –Т.:ТошДШИ, 2005. –27 б.
40. Таха Фарғали Абдел Хаким. Процессы становления и развития современных египетско-узбекских отношений. Автореф. дисс. ...канд. полит. наук.–Т.: ТашГИВ, 2002. –27 с.


### 4. Internet manbalari

41. Nasroniylar yerlarida Islom kuch bilan tarqalganmi? / <http://www.bbc.co.uk/news/world-middle-east-15537725> // <http://arabiangazette.com/qatar-hold-elections-2013/> - 1 November 2011
42. Минг йиллик аломат сифатида... // <http://www.aljazeera.com/news/middleeast/2012/05/201253171926431856.html> - 03 May 2012
43. Diniy madaniyat (xristian yevropasi va musulmon sharqi)// <http://parliament.sy/forms/cms/viewPage.php?id=124&mid=155&cid=190> – May, 2010

44. First Constitutional Era (Ottoman Empire) // [http://www.todayszaman.com/newsDetail\\_getNewsById.action?load=detay&link=130544](http://www.todayszaman.com/newsDetail_getNewsById.action?load=detay&link=130544)
45. Xristianlik tarixiga bir nazar // Heinrich Boll Stiftung / [http://www.boell.de/downloads/worldwide/Ghazian\\_The\\_Ninth\\_Parliametary\\_Elections\\_in\\_Iran.pdf](http://www.boell.de/downloads/worldwide/Ghazian_The_Ninth_Parliametary_Elections_in_Iran.pdf)
46. Nisman D. Algeria Recipe for Revolution. The Bouteflica Regime's refusal to address the suffering it the Algerian people will ultimately result in the downfall of North Africa's last dictatorship. // <http://www.middle-east-online.com/English/?id=50142> – 08.01.2012
47. McKinsey Consulting report, "The Coming Demographic: How Aging Populations Will Reduce Global Savings" (January 2005) McKinsey Company, <http://www.mckinsey.com/mgi/publications/demographics1>
48. <http://www.religioustolerance.org>
49. Encyclopedia Britannica Book of the Year (2010) –P.234 - 15.09.2011

ILOVA

*Ilova 1. Xarita*



*Ilova 2.*

1. Indoneziya-182,2 million;
2. Pokistan-146,9 million;
3. Bangladesh-116,0 million;
4. Hindiston-109,6 million;
5. Eron-63,9 million;
6. Turkiya-61,0 million;
7. Misr-51,6 million;
8. Nigeriya-40,2 million;
9. Jazoir-29,1 million;
10. Xitoy-29,1 million (2,4%);
11. Marokash-29,1 million;
12. Iroq-21,4 million;
13. Sudan-20,4 million;
14. Efiopiya-18,3 million;
15. Afg'oniston-18 million;
16. Yaman-16,1 million;
17. Rossiya-16 million;
18. S. Arabistoni-16 million;
19. O'zbekiston-15,9 million;
20. Malayziya-10,5 million;
21. Mali-9,4 million;
22. Tunis-9 million;
23. Somali-8,5 million;
24. Senegal-7,7 million;
25. Niger-7,5 million;
26. AQSH-7 million;
27. Qozog'iston-6,9 million;
28. Gvineya-6,5 million;
29. Ozarbayjon-6,1 million;
30. Kot-d'Ivuvar-5,9 million;
31. Fransiya-5,8 million;
32. Liviya-5,2 million;
33. Tojikiston-5,2 million;
34. Burkina-Faso-5 million;
35. Iordaniya-3,6 million;
36. Suriya-3,5 million;
37. Kamerun-3,1 million;
38. Turkmaniston-3,1 million;
39. Germaniya-3 million;
40. CHad-2,9 million;
41. Gana-2,8 million;
42. Qirg'iziston-2,8 million;
43. Falastin-2,4 million;
44. Mavritaniya-2,3 million;
45. Mozambik-2,3 million;
46. Serra-Leone-2,0 million;
47. Bosniya-1,8 million;
48. Serbiya-1,8 million;
49. BAA-1,8 million;
50. Livan-1,7 million;
51. Ummon-1,7 million;
52. Buyuk Britaniya-1,6 mln;
53. Malavi-1,5 million;
54. Tanzaniya-1,5 million;

55. Albaniya-1,4 million;
56. Bolgariya-1,3 million;
57. Bruney-1,2 million;
58. Quvayt-1,2 million;
59. Italiya-1 million;
60. Benin-0,95 million;
61. Gambiya-0,94 million;
62. Togo-0,85 million;
- 63.Makedoniya-0,59 million;
64. Bahrayn-0,51 million;
- 65.Komor rollari-0,51 mln;
- 66.Gvineya-Bisau-0,49 mln;
67. Qatar-0,47 million;
68. Jibuti-0,45 million;
69. TSingapur-0,44 million;
70. Liberiya-0,40 million;
- 71.Maldiv-0,25 million;
72. Mavrikiy-0,19 million;
73. S. Kabir-0,13 million;
74. So'rinam-0,10 million;
- 75.Kipr-0,04million;
76. Gibraltar-0,003 million.